

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK 371.035

Ollaberganova Gulbaxor Bakbulsinovna

Tasavvuf ta‘limoti va ma‘naviy barkamollik masalasi

Mutaxassislik: 5A 111601 - “Ma‘naviyat asoslari”

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

“Himoyaga tavsiya etaman”

Magistratura bo‘limi boshlig‘i

_____M.X.Esanov

«_____» iyun 2014 y.

“Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat
asoslari” kafedrası

mudiri _____f.f.n. M.Sobirova

Ilmiy rahbar _____

F.f.d. prof M.Imomnazarov

Toshkent – 2014

MUNDARIJA

KIRISH	2
I BOB. TASAVVUF TA'LIMOTINING SHAKLLANISHI	10
1. Tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi va mohiyati	10
2. Zohidlik, oshiqlik va oriflik	23
3. Tasavvuf ta'limotida shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat bosqichlari.....	31
Birinchi bob bo'yicha xulosalar	37
II BOB. TASAVVUF TA'LIMOTI NAMAYONDALARI MEROSIDA KOMIL INSON G'OYASI	40
1. Turkistonda tasavvuf tariqatlari: Yassaviya, Kubroviya va Naqshbandiya	40
2. Tasavvuf pirlarining ma'naviy merosi va komil inson shakllantirish muammolari.....	50
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	59
III BOB. TASAVVUF NAMAYONDALARINING MEROSLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI.....	60
1. Informatsion hurujlar davrida ajdodlar ilmiy ma'naviy meroslaridan foydalanib yoshlar ongida g'oyaviy imunitetni shakllantirish	60
2. Milliy g'oyaning tamoyillaridan biri bo'lgan millatlararo totuvlikni shakllantirishda tasavvuf pirlari ijodiyotining o'rni	66
3. Tajriba-sinov natijalarining statistik tahlili va xulosalar.....	70
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	73
XULOSA	75
FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	77
TAYANCH SO'ZLAR LUG'ATI.....	82

KIRISH

Tasavvuf ta'limoti va ma'naviy barkamollik masalasi

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. Tasavvuf ta'limoti insonning kamoloti, ruhiy-ma'naviy yuksalishi uchun qayg'urib kelgan gumanistik ta'limotdir. Tasavvuf g'oyalari bir butunlikni tashkil etadigan umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismidir, insonparvar ta'limotdir. Tasavvuf ta'limotidagi komil inson tarbiyasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov alohida takidlaganidek, islom ma'rifati va madaniyati rivoji haqida gap borganda, biz "mana shu qutlug' zaminimizda tug'ulib voyaga yetgan muborak nomlarini butun islom dunyosi cheksiz ehtirom bilan tilga oladigan Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Axmad Yassaviy, Abduholiq G'ijduvoni, Zamahshariy kabi piri komillarimizni nazarda tutamiz. Ma'naviy hayotimizni mana shu ulug' nomlar bilan bog'laymiz. Biz bu mutafakkirlarimizning qutlug' merosidan butun xalqimiz, jumladan yoshlarimizning ham bahramand bo'lishiga, ularning mana shunday ma'naviy muhitda kamol topishiga, islom dinining insonparvarlik falsafasi, buyuk g'oyalari yosh avlod yuragidan ham joy olishiga sharoit yaratmoqdamiz."¹ Barkamol avlod tarbiyasi ustivor yo'nalish bo'lgan hozirgi kunda insonni komillik darajasiga yetkazishga xizmat qiladigan ta'limotlarni o'rganish davr talabidir. Komil inson muammosiga maxsus e'tibor beradigan ta'limotlardan biri tasavvufdir. Qaysi mamlakatda komil insonni voyaga yetkazish, u haqida g'amho'rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, o'sha mamlakatda tinchlik, barqarorlik vujudga keladi. Ilm-fan, ma'rifat va madaniyat rivojlanadi. Bu o'z navbatida mamlakat oldida turgan turli eng murakkab muammolarni ham hal etish imkonini yaratadi. Davlat o'z faoliyatida ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirishni ustivor vazifa sifatida qaragandagina uning barqaror taraqqiy etishi uchun imkoniyatlar kengayib boradi. Bu holatni to'g'ri anglagan mamlakatimiz rahbariyati, hususan Prezidentimiz I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq barkamol

¹ Karimov I. Biz kelajakimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-tom. T: O'zbekiston, 1999 yil. 353-bet

insonlarni voyaga yetkazishga alohida ahamiyat berib, unga rahnamolik qilib kelayotirlar. Yurtboshimizning biror nutqi, asari yo'qki ularda u yoki bu jihatdan yoshlar tarbiyasi masalalariga to'xtalmagan. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadi ham aynan barkamol avlodni tayyorlashdan iborat. O'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida yuksak komil insonlarni tarbiyalash bugungi kundagi ma'naviy islohatlarning oldida turgan dolzarb masalalardandir. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Kelajak bugundan boshlanadi. Xozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz! Ma'naviy va ahloqiy poklanish, iymon, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat va shu kabi chinakkam insoniy fazilatlar o'z-o'zidan kelmaydi. Xammasining zaminida tarbiya yotadi". Keyingi yillarda, asosan, milliy dasturning sifat bosqichida yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularning aqliy va ma'naviy kamol toptirishini tashkil etishda jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Dasturdan ko'zlangan maqsad ham ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashdir.

Istiqlol yillarida bu sohada ham ancha ishlar qilindi: Tasavvufga oid nodir manbalar o'rganildi, nashr etildi. Kubroviya, Yassaviya, Naqshbandiya tariqatlarining shakllanish jarayoni, tarixiy yo'li, bugungi ma'naviyatimiz uchun ahamiyati ochib berildi.

Tadqiqotning ob'ekti. Tasavvuf ta'limoti, uning mohiyati, ma'naviy barkamollik masalasi

Tadqiqotning predmeti. Ma'naviy islohotlarda ma'naviy barkamol insonni shakllantirishning shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning maqsadi. Tasavvuf ta'limoti mazmunini tahlil etish, milliy istiqlol mafkurasining ildizlaridan biri ekanligini asoslab berish va ma'naviy barkamollik masalasini yoritib berish, barkamol avlod tarbiyasi jarayonida bulardan foydalanish darajalarini tadqiq etishdir.

Tadqiqotning vazifalari.Tadqiqotda quyidagi vazifalarni hal etish ko‘zda tutildi:

Tasavvuf ta’limoti va ma’naviy barkamollik masalasini nazariy, siyosiy, pedagogik nuqtai nazardan o‘rganish;

Tasavvuf ta’limotida manaviy barkamollik masalasining mazmunini ochib berish;

Tasavvuf ta’limotining barkamol inson tarbiyasidagi o‘rnini ko‘rsatib berish va ularni hayotga tadbiq etishning uslublarini tavsiflash;

Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi shakllanishida tasavvufning o‘rnini aniqlash;

I.A.Karimov asarlaridagi komil insonni shakllantiruvchi masalalarni pedagogik o‘rganish;

Komil insonni shakllantiruvchi omillarning mazmun mohiyatini ochib berish;

Komil inson shahsini voyaga yetkazishda ta’lim jarayonidagi tadbirlarni olib borish orqali ma’naviy tarbiyani takomillashtirish;

Ma’naviy islohatlar jarayonida komil insonni shakllantiruvchi metodlarni ishlab chiqish va uni ilmiy asoslash.

Tadqiqotning ilmiy farazi:

- Komil inson g‘oyasini amalga oshirishda ma’naviy islohatlarning kuchaytirish borasidagi olib borilayotgan ishlar tahlil qilinib, uni tasavvuf namayondalari asarlari asosida takomillashtirishga qaratilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilsa;

- Tasavvuf ta’limotidagi insoniylik, qalbning pokligi, ma’naviy barkamol insonlarni voyaga yetkazish usullari pedagogik mehanizm bilan ta’minlansa;

- Ma'naviy islohotlar jarayonida komil insonni shakllantiruvchi omillar va vositalar ish usullari ilmiy asoslansa komil inson g'oyasini amalga oshirish imkoniyatlari yanada ortadi.

Muammoning ishlanganlik darajasi. Tasavvuf ta'limoti va barkamollik masalasi qator olimlar tomonidan o'rganib kelinmoqda.

Tasavvuf ta'limotiga oid bo'lgan fikr-mulohazalar Shayh Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Fariddin Attor, Jaloliddin Rumi, Muhiddin ibn al-Arabi, Yahyo Suhravardiy, Nasimiy, Mashrab, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Hoja Ahror Valiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning asarlarida o'z aksini topgan. Tarix tajribasi va buyuk bobokalonlarimiz madaniy-ma'rifiy me'rosi bugungi kundagi ma'naviy islohatlar asosiy zamini bo'lib hizmat qilmoqda.

1991 yilda "Tasavvuf tarixidan: manbalar va ijtimoiy amaliyot" to'plami (Toshkent, Fan, M. M Xayrullayev tahriri ostida) nashr etildi. Bugungi kunda ma'naviy islohotlarni amalga oshirish va hayotga tadbiiq etish borasida bir qator olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda va kerakli risolalar chop etilmoqda. Mustaqillik yillarida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash yo'nalishi bugungi kunga kelib o'zining sifat darajasiga ko'tarildi.

Hozirgi kunga qadar Tasavvuf ta'limotining mohiyati to'g'risidagi va shahs ma'naviyatiga xizmat qilayotgan ko'plab maqolalar, kitoblar chop etildi, hamda keng hajmda ilmiy-tadqiqot ishlar olib borilmoqda. Taniqli tasavvufshunos olim va tarjimon Najmiddin Komilovning "Tasavvuf yoki komil inson axloqi" (1996) asari va birinchi, ikkinchi "Tasavvuf" (t: 1999) kitobining chop etilishi o'zbek tasavvufshunosligida jiddiy voqea bo'ldi. Sharqshunos olim Orif Usmonning ilmiy-ijodiy faoliyatini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Uning "Buyuk siymolar, allomalar, o'rtaosiyolik mashhur mutafakkir va donishmandlar" to'plami, "Bahouddin Naqshband va uning ta'limoti haqida" (Toshkent, 1995 yil), "Markaziy Osiyoning eng yirik so'fiy tariqatlari" asarlari diqqatga sazovordir.

Mazkur ishlar qatorida M.Boltayev², R.N.Nosirov³, A.Zohidiy⁴, M.Xayrullayev⁵ Ibrohim Haqqul⁶, Sultonmurod Olim,⁷ Shayx Muhammadsodiq Muhammad Yusuf va chet el olimlaridan Bertels, Yurgan Paul⁸, turk olimlaridan Mahmud As'ad Jo'shon⁹, Usmon Turar¹⁰ kabi bir qancha olimlar izlanishlar olib borganlar.

Tadqiqot metodlari: 1. Pedagogik kuzatuv. 2. Savol-javob testlar. 3. Kuzatish va analitik obzor. 4. Tarixiy qiyosiy tahlil. 5. Pedagogik tajriba-sinov.

Tadqiqotning metodologik asosi - O'zbekistan Respublikasining konstitutsiyasi, O'zbekistan Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni O'zbekistan Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlaridagi mafkuraviy tarbiyani rivojlantirish, barkamol inson, yuksak ma'naviyatli shaxs tarbiyasiga oid bayon etilgan fikrlar, O'zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim-tarbiyaga oid qarorlari, davlat ta'lim standartlari, darslik va o'quv qo'llanmalar, mutafakkirlarimizning shahs ma'naviyatini tarbiyalashga doir ilmiy-falsafiy ta'limotlari va ilmiy-pedagogik qarashlari.

Amaliyotchi olim va o'qituvchilarimizning mavzuga oid olib borgan ilmiy va amaliy ishlari.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asoslanganligi:

Tadqiqot ishi yuzasidan tajriba sinov ishlari Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining tarix va huquq fa'kultetida, maktab, kollej va litseylar orasida olib boriladi.

² M.Boltayev.Dunyoni anglagan ko'ngil.saodat.1993-8 son; Xo'ja Abdulxoliq G'ijduvoniy-inson,do'st,hakim,rif'at shayx.Buxoro.1994 y

³ Tasavvuf ta'limoti,uning mohiyati va ahamiyati.(o'quv qo'llanma).1996 y

⁴ Turkistonda o'rta asr arab musulmon madaniyati.O'zbekiston.1993 y

⁵ Xayrullayev M.O'rta Osiyoda IX-XII asrlarda madaniy taraqqiyot.Fan.1994

⁶ I.Haqqul.Ahmad Yassaviy.G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.2007 yil

⁷ Sultonmurod Olim.Ishq, oshiq, ma'shuq.Fan.1992;Buyuk Naqshbandiya.Kecha,bugun,ertaga.Fan va turmush.1993 yil.5-6 sonlar;Naqshband va Navoiy.O'qituvchi.1996 yil

⁸ Yurgan Paul.XV asrda O'rta Osiyoda naqshbandiylik va uning siyosiy va ijtimoiy ahamiyati.

⁹ Mahmud A'sad Jo'shon.Tasavvuf va nafs tarbiyasi.Cho'lpon.1998 yil;Islom,tasavvuf va ahloq.Istiqlol.2000 yil

¹⁰ Usmon Turar.Tasavvuf tarixi.Istiqlol.1999 yil

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: 1. Ma'naviyat asoslari va boshqa ijtimoiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning shahsiy fazilatlari va ma'naviy shakllanish sifatlarini, tasavvuf ta'limoti asosida ilmiy jihatdan tadqiqot sifatida o'rganiladi.

2. Uzlüksiz ta'lim tizimidagi umumiy o'rta maktab va o'rta mahsus kasb-hunar ta'lim tizimida o'qituvchilarning komil inson g'oyasini shakllantirishga yondoshuvchi va I.A. Karimovning asarlaridagi g'oyalardan foydalanishining pedagogik shart-sharoitlari, imkoniyatlari aniqlanadi.

3. Bu jarayonni amalga joriy etish, o'quvchi-talabalarga o'rgatish mazmuni, shakllari va metodlari, vositalari ishlab chiqiladi.

4. Uzlüksiz ta'lim tizimidagi umumiy o'rta maktab va o'rta mahsus kasb-xunar ta'lim muassasalaridagi o'quvchi-talabalarni komil inson g'oyasini shakllantiruvchi usullar orqali tarbiyalash vositalaridan foydalanishning samaradorlik darajasi belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati: 1. Uzlüksiz ta'lim tizimidagi "Pedagogika", "Falsafa", "Madaniyatshunoslik", "Ma'naviyat asoslari", "Mantiq", "Milliy g'oya" fanlarini tasavvuf namayondalari asarlaridagi ilg'or g'oyalar bilan boyitish imkoniyatlari vujudga keladi. Bu g'oyalar bilan yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyasi uchun ishlab chiqilgan ilmiy pedagogik yo'nalish - pedagogika nazariyasi va tarixi fanini yanada boyitishga keng imkoniyatlar yaratiladi.

2. Oliy ta'lim muassasalarining "Pedagogika", "Falsafa", "Madaniyatshunoslik", "Ma'naviyat asoslari", "Mantiq", "Milliy g'oya", "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" o'quv qurslari jarayonida ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini, darsdan tashqari o'tkaziladigan ma'naviy-siyosiy tadbirlarni olib borishda ham biz yaratgan tavsiyalardan foydalanish imkoni yaratiladi.

3. Olingan natijalardan ta'limning boshqa turlarida - fan, ta'lim, ma'naviyatga doir radioeshittirishlar va teleko'rsatuvlarni olib borish uchun dasturlarni tayyorlashda foydalanish mumkin bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: Tadqiqot ishining mazmuni va natijalari dissertant tomonidan Respublika ilmiy - amaliy anjumanlarining to'plamlarida, ilmiy metodik jurnallarda chop etilgan ishlar. (Chop etilgan ilmiy ishlar ro'yhati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar royxatida ilova etildi).

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar: 1. Tasavvuf ta'limoti va barkamollik masalasini o'rganish - dolzarb pedagogik muammo ekanligi.

2. O'quvchi - talabalarni barkamol inson etib tarbiyalashda I.A. Karimov asarlarining mazmuni oliy ta'lim tizimida o'rganilish holati.

3. Tasavvuf ta'limoti va komil inson g'oyasini amalga oshirishda ma'naviy islohotlarning ahamiyati tarbiyaning negizi ekanligi.

4. Barkamollik masalasini amalga oshirishda ma'naviy islohotlarning ahamiyati.

Tadqiqot bosqichlari:

1-bosqich. 2012 yil - Tasavvuf ta'limoti va barkamol inson g'oyasini o'rganish va bunda Islom Karimovning g'oyalari ro'lini nazariy, g'oyaviy, mafkuraviy tahlil qilish.

2-bosqich. 2013 yil yanvar-avgust - mavzuga oid barcha adabiyotlarni tahlil etish va 1- bobni tayyorlash.

3-bosqich. 2013 yil sentabr-dekabr - Tasavvuf ta'limoti va barkamollik masalasining usul, vosita va texnologiyasini yaratish va amaliyotda sinovdan o'tkazish. Dissertatsiyaning 2-bobini yakunlash.

4-bosqich. 2014 yil aprel - Dissertatsiyaning 3-bobini yakunlash. Tajriba-sinov natijalarini statistik tahlilini tayyorlash. Tadqiqotning bazasi sifatida -

uzluksiz ta'lim tizimidagi umumiy o'rta maktab va o'rta mahsus kasb-hunar ta'lim maskanlari olindi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya __ betdan iborat bo'lib, kirish, uch bob, umumiy hulosasi va takliflar, adabiyotlar ro'yhati va ilovalardan iborat.

I BOB. TASAVVUF TA'LIMOTINING SHAKLLANISHI

1. Tasavvuf ta'limotining paydo bo'lishi va mohiyati

Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyati va madaniyatining shakllanishi va taraqqiyoti, uning falsafiy-ilmiy va badiiy-estetik yo'nalishlarining mohiyatini ochishda islomiy bilimlarning o'рни va ahamiyati beqiyosdir. Bu masalada, ayniqsa, tasavvufning mohiyatini bilmasdan turib milliy ma'naviyatimizning tarixiy sifat o'zgarishlarini belgilab bo'lmaydi. Islom tasavvufi o'z tarixi, shakllanish va takomillashish jarayoniga ega.

Tasavvuf ilmining paydo bo'lishi haqida turli xil ma'lumotlar mavjud. Tasavvuf ilmining qanday qilib dunyoga kelgani va qanday xususiyatlarga ega ekanligi to'g'risida Ibn Xoldun "Muqaddima" asarida aniq-ravshan ma'lumot bergan. "Bu ilm, islom jamiyatida paydo bo'lgan shar'iy ilmlardandir. Uning asli budir: tasavvuf ahlining yo'li, sahoba va tobeingdan bo'lgan salaflar nazarida haq va hidoyat yo'li edi. Tasavvuf yo'lining asosi, dunyoning zeb-ziynatiyu go'zalliklaridan yuz o'girmoq, o'tkinchi dunyo zavqlaridan ko'ngilni ayirib, haqqa yo'nalmoq va toat-ibodatga astoydil bel bog'lamoqdir. Hijriy II-asrdan boshlab musulmonlar orasida dunyo sevgisi kuchayib ketgach, toat-ibodatga berilganlar toifasi so'fiy va mutasavvif ismlari bilan tanildilar. Bu ism ishtiyoq jihatidan "suf" dan kelib chiqqan, chunki ular chiroyli liboslarni tark etib suf-jun kiyib dunyoparastlarga zid ish qilganlar. Ular zuxd, uzlat, ibodat va toatga qattiq berilgach o'zlariga hos vujud "jo'shish" va boshqa hollarga ega bo'ldilar. Buning sababi va hikmati esa bunday: insonni boshqa jonvorlardan ajratib turuvchi jihat-aqlu idrok egasi ekanligi. Idrok ikki hil: 1-ilmu ma'rifatli idrok bo'lib yaqin, gumon, shubha va vahimadan iborat. 2-rohat-farog'at, g'am-tashvish, qabz-rizo, g'azab, shukur va sabr kabi o'zi bilan qoyim bo'lgan hollarni idrok etishdir".

Sharqning buyuk mutafakkiri javonmardlik tariqatining asoschisi Xusayn Voiz Koshifiy quyidagi ma'lumotni yozadi: “ma'lum bo'lishicha, “tasavvuf” so'zi islomdan oldingi zamonda ham bo'lgan ekan. “Unsul so'fiya” kitobida birinchi bo'lib “so'fiy” degan nomni olgan Odam ato farzandlaridan biri – Shish edi deb naql qilinadi. Uning liboslari yashil sufdan, suf – jun mato ekan va Shishdan keyin jun matodan kiyim kiyib yuruvchilarni “sufiy” deydigan bo'ldilar.”¹¹

Islom mutafakkirlari tasavvuf kalimasining qayerdan kelganligi va tasavvuf ahliga nima uchun so'fiy ismi berilganligi to'g'risida turli qarashlarni ilgari surganlar bular quyidagilar:

- a) Tasavvuf so'zi “As'hobi suffa” dan paydo bo'lgan, bunga ko'ra so'fiylar harakatlari bilan As'hobi suffaga o'xshaydilar. As'hobi suffalar (supa) ko'p vaqtlarini masjidi nabaviyning suffasida ibodatu zikr bilan o'tkazganlar. Biroq as'hobi suffalar bilan so'fiylarning yashash tarzi bir-birlariga o'xshash bo'lsada, asos jihatdan bu qarash to'g'ri emas.
- b) Tasavvuf so'zi “saff” dan paydo bo'lgan. So'fiylar ollohning roziligiga muvofiq yashaganliklari tufayli ohiratda oldingi safda turadilar, degan tushunchadan paydo bo'lgan. Bu nuqtai nazar ham kelib chiqishi jihatdan to'g'ri emas.
- c) “Banu sufa” ga nisbat berilib so'fiy deyilgan. Banu Sufa mudor qabilasiga mansub bo'lib, kabatullohga xizmat qilib, olloh roziligi uchun xalqqa xizmat qilgan va astoidil ibodatga berilgan sulolaning ismidir. So'fiylar tabiati jihatidan ularga o'xshatilib, bu qarash olg'a surilgan. Bu qabila islomdan avval bo'lgan, islomdan keyin u haqda so'z yuritilmagani bois bu qarash to'g'ri kelmaydi.
- d) So'fiy kalimasining asli “Safoviy” bo'lib talafuzi qiyin bo'lgani uchun “vov ” bilan “fa” o'rin almashgan. Bu qarash ham noto'g'ri.
- e) So'fiy so'zi “safo” yoki “savf” dan kelib chiqqan. Bu qarashga ko'ra so'fiy dunyoviy kirlardan tozalanib poklangani uchun bu nomga sazovor bo'lgan.

¹¹ Xusayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniyyoxud javonmardlik tariqati. Fors- tojik tilidan N.Komilov tarjimasini. – Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – 18 b.

- f) Tasavvuf bir yoqlama bo'lish yuz o'girish ma'nolarini bildiruvchi savf so'zidan olingan deyiladi. Olohga erishganlar masvodan yuz o'girganlari uchun so'fiy yurgan yo'llariga esa tasavvuf deyilgan.
- g) So'fiy kalimasi yunoncha hikmat ma'nosini bildiradigan “sofos-so'fiya” dan olingan. Umar Farid Kam (1861-1944) “Vahdate vujud” asarida (76-bet), Shamsiddin Somiy (1850-1905) esa “Qomusiy turkiy” asarida bu qarashni yoqlaydilar, lekin islomda hikmat va falsafa bilan shug'ullangan Ya'qub ibn Ishoq-al Kindiyga faylasuf deyilgan ammo so'fiy deyilmagan.
- h) So'fiy kalimasi jun, yung ma'nosidagi “suf” so'zidan olingan rangsiz, dag'al jundan tikilgan libos kiyimoq u davrlarda gunohdan pushaymon bo'lishning alomati edi. So'fiylar ham junli kiyim kiyardilar, oq rangli junli kiyim kiyish xijriy III asrdan e'tibaran so'fiylar tomonidan rasmiy libos sifatida maqbul ko'ringan.

So'fiy kalimasining berilishi to'g'risida Turkiya mamlakatidagi Arzirim universitetida tasavvufdan saboq beruvchi Usmon Turar – yunoncha “hikmat, falsafa” ma'nosida bildiradigan “sofos, sofia” dan olingan deb vatandoshi Ismoil Haqiqiy Izmirlining quyidagi dalillarini keltiradi: “zoxidlik yo'liga suluk (tarkidunyo) qilingan kishilarning “sufiya” ismi bilan mashhur bo'lishlari, yunoncha asarlarning tarjima qilinishi va falsafaning musulmonlar orasida tarqalishidan avval sodir bo'lgan. Ilk bor so'fiy ismi bilan atalgan zot 150 x. – 767 m. yilda vafot etgan Abu Xoshimdir”¹². Yuqorida nomlangan manbada A.Jomiyning «Nafaxotul - uns» asariga asoslanib quyidagi dalil keltiriladi: «Sufiy» laqabi bilan tanilgan ilk zot kufalik Abu Xoshim as-Sufiy (767 y. v. e.) edi. Tasavvuf tarixida birinchi taqa – xonaqox esa bir nasroniy amir tomonidan Ramla shahrida Abu Xoshim uchun qurilgan edi¹³.

Anas ibn Molikdan rivoyat qilishlaricha, “Payg'ambar alayxissalom bir kishining da'vatiga ijobat qilib, eshagiga minar va junli kiyim kiyib borar edilar. Sufiylar ham junli kiyim – payg'ambarlarning kiyimi va tavoze (kamtarlik) belgisi

¹² Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. Turk tilidan Nodirxon Dadaxon tarjimasini. – Toshkent, «Istiqlol», 1999. – 22 b.

¹³ N.Komilov. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. – Toshkent, «Yozuvchi», 1996. – 49 b.

bo‘lganidan junli libos kiyardilar. Oq rang junli kiyim kiyish xijriy III asrdan e’tiboran sufiylar tomonidan rasmiy libos sifatida maqbul ko‘rilgan”¹⁴.

So‘fiy so‘zi qaysi so‘zdan kelib chiqqan bo‘lishiga qaramasdan so‘fiylik sifatiga ega kishilar guruhining nomi bo‘lib, so‘fiylik yo‘lini tanlagan kishi so‘fiy, u yurgan yo‘lga esa tasavvuf deyiladi.

Tasavvuf- haqning roziligiga erishish va abadiy saodatga ega bo‘lish uchun nafsni tarbiyalash ahloqni go‘zallashtirish, botin va zohinni nurlantirish, sura‘t va siyratni poklash haqida ma‘lumot beradigan ilm bo‘lib, uning mavzusini inson, inson ruhi, xulqi tashkil etadi. Tasavvuf iymon, xaqni tanib bilish mavzularini ham qamrab oladi. Hazrati payg‘ambarimiz (s.a.v) “men go‘zal ahloqni ado etmoq uchun yuborildim” deyish bilan so‘nggi payg‘ambar sifatida o‘z g‘oayasini bildirganlar. Tasavvufning g‘oyasi ham barkamollik martabasiga erishmoq uchun har sohada payg‘ambarimiz ko‘rsatgan yo‘ldan yurib, botiniy va zoxiriy yetuklik yo‘lini ko‘rsatishdir. Tasavvuf Haqning roziligiga erishmoq uchun nafsni poklab go‘zal ahloq egasi bo‘lishga intilmoq ya‘ni olloh va rasulining hulqi bilan ahloqlanishdir.

Tasavvuf borasida ko‘plab ta‘riflar ilgari surilgan bular quyidagilar:

Ma‘ruf Karhiy (200 h-815 m): “tasavvuf haqiqatlarni qabul etmoq insonlarning qo‘llaridagi narsalarga ko‘ngil bog‘lamaslikdir”.

Sirri Saqati: “tasavvuf go‘zal ahloqdir, 3 ma‘noni o‘z ichiga olgan atamadir: a) ma‘rifatning nuri vara‘ ning nurini so‘ndirmaydi; b) botin ilmiga oid biror so‘zni kitob va sunnatga qarshi ishlatmaydi; c) karomatlarni, sirlarni olloh bilan o‘zining orasidagi sirlarni elga bildirmaydi ”.

Junayt Bag‘dodiy (h 298- 910 m): “tasavvuf Haqning sendagi “sen”ni o‘ldirishi va seni O‘zining nazdida tiriltirishidir”.

¹⁴ N.Komilov. Tasavvuf. –G‘oyiblar xaylidan yongan chiroqlar /to‘plam/. – Toshkent:, «O‘zbekiston», 1994. – 22 b.

Abu Amir Ismoil ibn Nujayd (vaf 366-976): “tasavvuf amir va naxiy ostida sabr qilmoqdir”.

Abu Said ibn Abil Hayir (vaf 440- 1048): “tasavvuf aqlingdagi barcha oy hayollarni tark etishing, qo’lingdagi narsalarni ehson qilishing va senga ro’para kelgan voqea-hodisalardan oh-voh chekmasligingdir”.

Abul Hafs al-Haddod (vaf270-883): “tasavvuf batamom odobdan iborat”.

Imom G’azoliy (vaf 505-1111): “tasavvuf qalbni faqatgina ollohga yo’naltirib boshqa barcha narsalardan butkul aloqani uzishdir”.

Ibn Holdun (vaf 808- 1406): “tasavvuf ibodatda astoidil davom etmoq, ollohga yo’nalmoq, dunyoning bezak va yolg’onchiligidan yuz o’girmoq, molidunyo, shon-shuhratdan yuz o’girish, ibodat uchun xalqdan ayrilib hilvatga kirishdir”.

Abdulbori Nadviy: “tasavvuf ruhni foniyliklardan poklab bezash va botiniy sifatlarda payg’ambarimizga ergashishni o’rgatuvchi ilmildir”.

Shayx Nuriy: “Tasavvuf - nafs lazzatlaridan voz kechishdir”;

Shayx Safiy Alimshox: “Tasavvuf nafs manzillarini bosib o’tishdir”;

Shayx Ravim: “Tasavvuf - Xudo yo’lida nafsdan kechmoqdir”;

Sufiy shoir Bobo Toxir: “Tasavvuf - nafsoniy - xayvoniy xayotda o’lmoq va insoniy xayotda yashamoq”.

Har bir olim tasavvufni o’z dunyoqarashiga muvofiq tariflagan. Tasavvuf har bir so’fiyning ichki olamidagi ruhiy jarayon bo’lib so’fiy hol va maqomiga ko’ra tasavvufning ma’lum jihatini bayon etadi. Bir so’fiyning tasavvuf haqidagi ta’rifi boshqasidan farqli bo’lishi tabiiydir.

Tasavvuf VIII asrda arab mamlakatlarida vujudga kelgan va u dastlab Muhammad payg’ambarning faoliyati, uning ko’rsatmalari xamda diniy rivoyatlar majmuyini ochib berish bilan bog’liq bo’lgan g’oyalarni targ’ib etgan. Tasavvuf, sufiylik - islomda insonning ruhiy dunyosi to’g’risidagi qarash. Bu atama va undan

yasalgan mutasavvif (sufiy, “sufiylik qiluvchi”) va sufiy (tasavvuf izidan boruvchi) soʻzlarining kelib chiqishi va maʼnosi haqida turli taxminlar bor.

“Mutasavvuf – qalban sufiyona gʻoyalarga moyil, tasavvufni eʼtiqod – maslak qilib olgan, lekin tariqat amaliyotini oʻtamagan, rasman sufiy boʻlmagan odam”¹⁵. Navoiyshunos olim Abdumalik Orif fikricha, “sufiy yoki darvesh muayan bir tashkilot – tariqatga mansub boʻlib, suluk yoʻlida haqiqatga erishishni oʻziga maqsad qilib qoʻyadi. Bu yoʻlda unga maxsus ustod – murshid, pir, shayx rahbarlik qiladi. Mutasavviflar toifasiga bilim egalari - tasavvuf taʼlimini qabul qilgan, uning falsafiy gʻoyalari va axloqiy qoidalarini oʻz ijodlariga tatbiq etgan mutafakkir olimlar, yozuvchi – shoirlar mansubdir”¹⁶

“Mutasavvuflar – tasavvuf ilmini oʻrganish, Allohning yer yuzidagi goʻzalliklarini koʻrib, ibrat olish uchun sayohat qilishni foydali deb bilganlar. Ibrat uchun koinotni tadqiq etib, u haqda fikrlamoq, turli oyatlar orqali tavsiya qilingan. Xullas, sufiylar uchun» sayoxatdan maqsad – axlullox topish, olimu orif va soliq'larga yaqinlashib, baytul xarom, baytul maq'dus va taka xonaqoxlarni ziyorat qilishdir.”¹⁷

Lekin hozir umumiy qabul qilingan nuqtai nazarga koʻra, tasavvuf - suvf – “jun”, “poʻstin” soʻzidan olingan.

Ilgari zamonda tarkidunyo qilgan zohid, “oʻzini xudoga bagʻishlagan odam” odatda dagʻal jundan toʻqilgan kiyim yoki poʻstin kiyib yurgan. Tasavvufga asos solgan tarki dunyochilik, tasavvufiy kayfiyatlar islom dini bilan deyarli bir vaqtda paydo boʻladi. Har qalay, Muhammad paygʻambar (sav) ning ayrim safdoshlari Abu-d-Dardo, Abu Zarr, Huzayfa (7-a. ning 2-yarmida vafot etganlar) singlarlarga anashunday kayfiyat xos boʻlgan, deb hisoblaydilar. Biroq islomdagi zohidlik oqimi taxminan VIII asrning oʻrtalari – IX asrning boshlarida shakllana boshlagan deyish toʻgʻridir. Odatda, bu oqimga hadislarni toʻplovchi (muhaddis) lar orasidan

¹⁵ N.Komilov. Tasavvuf. –Gʻoyiblar xaylidan yongan chiroqlar /toʻplam/. – Toshkent:, «Oʻzbekiston», 1994. – 17 b.

¹⁶ Abdumalik Orif. Navoiy sufiyimi yoki mutasavvufimi? – Gʻoyiblar xaylidan yongan chiroqlar/toʻplam/. – Toshkent:, «Oʻzbekiston», 1994. – 223 b.

¹⁷ Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. Turk tilidan Nodirxon Dadaxon tarjimasi. – Toshkent, «Istiqlol», 1999. – 89 b.

chiqqanlar, sayyor baxshilar va nasihatgo'y voizlar (qussos), qori-yu qurrolar, jihod qatnashchilari, taqvodor hunarmandlar va savdogarlar, shuningdek islom dinini qabul qilgan nasroniylarning bir qismi qo'shilgan. Islomda zohidlik an'analari paydo bo'lishi va rivojlanishining sabablari orasida musulmon jamoasi yashay boshlagan dastlabki ikki asrdagi ijtimoiy-siyosiy ixtiloflar, chuqur g'oyaviy va ma'naviy izlanishlar bilan davom etgan diniy hayotning umumiy murakkablashuvi, boshqa diniy-falsafiy tizimlarning, birinchi navbatda xristianlikning ta'sirini ko'rsatish mumkin. Ilk sufiylik, aniqrog'i zohidlar va tarkidunyo qilganlarning o'ziga xos xususiyati Qur'on matni mazmuni ustida mushohada qilish, kundalik hayotda bu ilohiy kitob va payg'ambar hadislarini ko'rsatmalariga qat'iy rioya etish, ko'p marta qo'shimcha namoz o'qish, bedorlik va ro'za tutish, har qanday dunyoviy narsalardan yuz o'girish, kundalik hayotda taqvoli bo'lish, xususan ruxsat etilgan narsalar bilan man qilingan narsalarni qat'iy ajratish, dunyoviy va harbiy hukumatlar bilan hamkorlik qilishdan voz kechish, o'zini taqdiri ilohiyga topshirish (tavakkul) kabilar bo'lgan. Shuningdek, faqirlikni ulug'lash, oxiratni o'ylash va tavba qilish kayfiyati, berganiga shukr qilish, azob-uqubatlarga sabr-toqatlilikdan iborat edi. Sufiylik ta'limoti inson qalbidagi eng nozik o'zgarishlarni ham chuqur mulohaza bilan o'rganish, odamlardagi botiniy tuyg'ularga hamdard bo'lishga o'rgatardi. Shu sababli ham Tasavvuf asoschilaridan biri nozik ruhshunos, "qalb va fikrlar" hamda insoniy niyatlar to'g'risidagi "fan"ning yaratuvchisi Hasan al-Basriy hisoblanishi bejiz emas.

"Xasan umr boyi mo'minlarni ma'rifatga, zolimlarni adolatga xidoyat etishni o'ziga odat qilib oldi. Robiya Adaviya, Ibroxim Adxam singari bir necha mashoyixlar Xasan Basriyning duosini olgan, uning qo'lidan xirqa kiygan. Shayx taxminan 80 yil umr ko'rib, xijriy 110 yili Basrada vafot etgan. Uning xikmat va karomatlarini, u xaqda xikoyatlar barcha tazkira va manoqiblardan joy olgan. Dunyo va uning xolati xususida so'rovchilarga qaytargan javoblari Xasan Basriyning purma'no xikmatlari jumlasiga kiradi: "Mendan dunyo va oxirat xaqida so'rading.

Dunyo va oxirat mashriq va Mag'rib xolatiga o'xshaydi. Ularning biriga qancha yaqin borsang, ikkinchisidan shuncha uzoqlashasan!"¹⁸

Basralik zohidlar - Hasan al-Basriyning shogirdlari va izdoshlari Raboh ibn Amr, Robiya al-Adaviya, ad-Daroniy (VIII-asr oxiri - IX-asr bosh) larning da'vat va xutbalari kishida xudoga astoydil muhabbat, unga yaqinlashishga intilish tuyg'ularini paydo qildi. O'sha paytdan boshlab bu tuyg'ular sufiylik g'oyasining o'ziga xos xususiyati va farqli belgisi bo'lib qoldi. IX-asr davomida Tasavvuf nazariyasi va amaliyoti ustida faol ish olib borildi. Bir qancha sufiylik maktablari paydo bo'ldi, ular orasida Basra maktabidan tashqari Bag'dod va Xuroson maktablari ham birmuncha ta'sirga ega edi.

Ularning vakillari inson va uning Xudoga munosabati qanday bo'lishi kerakligiga haqidagi ta'limotni yaratdilar. Ruhiy kamolotga erishish yo'llarini ko'rsatib berdilar. Bu yo'l 4 bosqichdan iborat: 1-bosqich - shariat. Bunga ko'ra, Tasavvuf ahli avvalo shariatning barcha talablariga bo'ysunishi kerak. Shundan keyin 2-bosqich - tariqatga ko'tarilish mumkin. Bunda muridlar o'z pirlari - murshidlarga itoat etishi, o'z shaxsiy istaklaridan voz kechishi shart. Bu bosqichdan o'tganlar yuqoriroq, 3-bosqich - ma'rifatga ko'tariladilar, bunda koinotning birligi Xudoda mujassam bo'lishi, yaxshilik va yomonlikning nisbiyligi aql bilan emas, qalb bilan anglab yetiladi. 4-bosqich -haqiqat hisoblanib, zohid "shaxs sifatida tugab", "haqiqat"ga, xudoga yetishadi, unga singib ketib abadiylikka erishadi. Bunga sufiylar maxsus ruhiy va jismoniy harakatlar - sig'inish va ibodatlar orqali intiladilar. Sufiylar xudoga yetishish mumkinligi haqidagi fikrlari, shariat tomonidan buyurilgan amallarni bajarishdan bosh tortishlari tufayli goh-gohida ma'murlar ta'qibiga ham uchrab turadilar (at-Tustariy, Hakim at-Termiziy, an-Nuriy). Mashhur mutasavvif Husayn Mansur Halloj "anal haq" (men haq, men xudo) degani uchun Bag'dodda xalifa tomonidan dorga osildi (921). O'z yurti Tabaristonda katta obro' qozongan Abu Yazid Bistomiy ham shakkoklikda ayblanib, qatl etilgan edi.

¹⁸ Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent. Sharq. 2004. 15 bet

Tasavvufga sunniylarning rahnamolari tomonidan bunday munosabatda bo'lish ularni ehtiyotkorlikka, murosali yo'llar izlashga majbur etdi. Ular Qur'on va sunnaga sodiqliklarini e'lon qilaverdilar, "tiyiqsiz" safdoshlarining keskin fikrlaridan uzoqlashib, o'z maslaklarini niqobladilar. Bag'dodlik al-Junayd (910 y. v.e.) ana shunday mavqeda turgan sufiy edi. U "mo'tadil" deb atalgan sufiylik an'anasini boshlab berdi. Bunday an'ana tarafdorlari keyin "keskin" yoki "ekstatik" sufiylikka qarshi turdi.

Ilk Tasavvufning ijtimoiy asosini asosan shaharliklar: mayda savdogarlar, hunarmandlar tashkil etgan edi. Ular ichida diniy ta'limot olganlari ko'p uchramasdi, shunday bo'lsada, o'zlarini "sufiylik fani" nazariyotchilari deb bilardilar. Tasavvufning ilk bosqichidayoq ma'naviy ustoz (shayx, murshid, pir) rahbarligida sufiylik nazariyasi va amaliyotini egallash muhim hisoblangan, busiz boshlovchi sufiy (murid) aql-hushi va sog'lig'ini yo'qotishi mumkin edi. Shayxga butunlay bo'ysunish, barcha diniy va dunyoviy masalalarda uning obro'sini tan olish talabi uni muridlar ko'z o'ngida boshqa odamlardan ustun qilib qo'yardi.

Yirik sufiy ustozlarni valiy deb atay boshladilar. Bunda shialarning imomlar to'g'risidagi ta'limotining ta'sirini ko'rish mumkin. Muridlar, ularga ergashib oddiy xalq bu odamlarning "adashmasligi", Alloh nazar qilganligi, karomat ko'rsatishga, payg'ambarga kelgan vahiyning "yashirin" ma'nosini izoxlab berishga qodirligi, xudo bilan bevosita aloqa qila olishi haqida gapira boshladilar. Bularning hammasi xalq og'zaki ijodida, shuningdek, Tasavvuf nazariyotchilari (masalan, Hakim at-Termiziy) ning asarlarida o'z ifodasini topdi.

Sufiy bilimlari va barakasining shayhdan muridga o'tishi uzoq ta'lim jarayonida amalga oshirilgan, saboq berish tugagach, shogird ustozdan sufiylik jandasi (xirqa)ni olgan, bu o'ziga xos "shahodat" vazifasini o'tagan va mustaqil targ'ibot olib borish huquqini bergan. Voiz Koshifiy xirqa va ahli faqrning kiyimlari, uni kiyish, kiydirish va muridlarga xirqa yetkazish va buning shartlari, odobu arkoni bayonida xirqa kiygan xazrati Odam bo'lib, undan maqsad va asl muddao shulki, xirqa oshnolik to'nidir, deb yozadi. Va shu bilan birgalikda

soʻfiylarning xirqa ranglari bayonida uning ranglari xilma-xil boʻlib, har biri bir xolatga ishoradir deb quyidagini yozadi: “Agar oq rang qaysi toifaniki, deb soʻrasalar, javob bergilki, oq rang kunduzning rangidir va dili ravshan jamoanikidir va ularning koʻksi qudrat, kina va gʻubordan pokdir. Kimki oq rang xirqa kiya, subhi sodiq kabi boʻladi va kunduz misoli barchaga ravshanlik bagʻishlaydi”¹⁹. Shuning bilan birgalikda adib yashil, zangori hamda tuproq rangli xirqalarga tavsif berib, ularning qaysi matodan tikilishi bayonida ham ularni tavsiflab, birinchisi – jundan, ikkinchisi – paxtadan, uchinchisi – palosdan va toʻrtinchisi – teridan iborat deb, uning odoblari, yaʼni xirqani kiyishni qobiliyatli muridga kiygizish, muridni xirqa kiyish shartlari bilan tanishtirish, takbir va tahlil yuborish bilan birgalikda oʻtgan pirlar va ajdodlar ruhini xotirlash odobi haqida yozadi.

Taniqli turk tasavvufshunos olimi Usmon Turar xirqa tariqat ahli kiyadigan libos ekanligini taʼkidlagan holda «xirqa kiyish anʼanasi hazrati Ibrohimga borib taqaladi. Naql qilishlaricha, hazrati Ibrohimni gulxanga tashlaganlarida Jabroil a.s. jannatdan ipak koʻylak olib kelib unga kiydirgan va hazrati Ibrohim uning barakoti tufayli olovdan qutilgan. Ushbu koʻylakni saqlab qoʻyib, xazrati Ismoilga qurbon qilmoqchi boʻlganida kiydirgan. Bu koʻylak xazrati Ismoildan xazrati Isxoqqa, undan Yakubga, undan Yusuf a.s. ga qadar kelgan va uning quduqdan qutilishiga, hazrati Yaʼkubning esa koʻzlarining ochilishiga vosita boʻlgan. Soʻfiylar xirqada bu koʻylakning sirrini koʻrib, unga maʼnaviy bir ahamiyat berganlar”²⁰.

Odatda muridlar turli joylardan kelgan boʻlib, oʻz makonlariga qaytib borganlar, u yerda sufiylik toʻgaraklari va manzillari (zoviya, xonaqoh) tashkil qilib, oʻzlari shogird tayyorlay boshlaganlar. Bularning hammasi Tasavvufning tez tarqalishiga olib kelgan.

X asr oxiri – XI asr boshlarida Tasavvufga oid kitoblar yozildi. Ular orasida at-Tusiy (988 y. v.e.), al-Kalabodiy (990 yoki 995 y. v.e.), Abu Tolib al-Makkiy (998 y. v.e.), as-Sulamiy (1021 y. v.e.) kabilarning bizgacha yetib kelgan asarlari

¹⁹ Xusayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati. Fors – tojik tilidan N.Komilov tarjimai. – Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – 43-45 bb.

²⁰ Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. Turk tilidan Nodirxon Dadaxon tarjimai. – Toshkent, «Istiqlol», 1999. – 101 b.

bor. Bu mualliflar Tasavvufga doir bilimlarni tartibga soldilar, sufiylik istiloxlarini tushuntirib berdilar. Tasavvufni izchil islom ta'limoti bilan yaqinlashtirib, uni keyinchalik rasmiy ta'limot sifatida tan olinishida Razoliy, Abdulqodir Giloniy (Jiloniy) ning (1161 y. v.e.) xizmati katta. XII asr o'rtalari – XIII asr boshlarida sufiylar tashkil etgan zoviyalarda, xususan shaharlarda Tasavvuf tariqat (suluk)lari vujudga kela boshladi.

Bag'dodda paydo bo'lgan dastlabki suxravardiya va qodiriya tariqatlari butun musulmon olamiga tarqaldi.

“Suxravardiya tariqatining asoschisi Shaxobiddin Abuxafs Umar Suhravardiydir. Uning asosini ibodat, zuhd va mujoxadat, umuman irfoniy ma'rifat tashkil etadi. Suhravardiya silsilasining Xindistonda Baxouddin Zakariyo Multoniy rivojlantirdi. Xozir xam Pokiston, Xindiston va Afg'onistonda bu ta'limotning davomchilari bor”²¹

Tariqatlar tariqat nomi berilgan kishilar - Umar as-Suxravardiy va Abdulqodir Giloniydan ham ko'ra, ko'proq ularning shogirdlari va izdoshlari tomonidan vujudga keltirilgan, bu hol umuman tariqatlarning shakllanish jarayoni uchun xarakterlidir (masalan: shoziliya, mavlaviya, badaviya va h.k.)- Tariqatlarning vujudga kelishi bilan Tasavvufning ta'siri yanada kuchaydi. Ko'pincha ma'murlar tariqat va zoviyalar rahbarlarining qo'llab-quvvatlashini istab, ularga turli imtiyozlar berdilar, hatto faoliyat yuritishi uchun pul ajratdilar. Ayni vaqtda ko'p sufiy rahnamolar dunyoviy ishlarga aralashmasdilar, ma'murlar bilan bevosita aloqada bo'lmasdilar va moddiy yordamidan bosh tortardilar (chishtiya). Umuman sufiylar xalq ommasi bilan yaqinlashishga harakat qilardi.

Tasavvuf dastavval Eronda, IX asrga kelib Turkiston, keyinchalik Yaqin va O'rta Sharq, Shimoliy Xindiston, Indoneziya, Shimoliy-G'arbiy Xitoyga tarqaldi.

Jahonning ko'pchilik mamlakatlariga bu ta'limotning tarqalishida Zunnun al-Misriy, Abu Abdullox, Boyazid Bistomiy, Junayd, Mansur Xalloy, Muxammad

²¹ Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent. Sharq. 2004. 9 bet

al-G'azzoliy, Sanoiy, Attor, Rumi, Ibn-al-Arabiy, Yusuf Xamadoniy, Abduraxmon Jomiy va boshqalar muayan faoliyat ko'rsatdilar. Allomalar o'z qarashlarida tasavvufni nazariy xamda amaliy qismlari ustida xam ijod etdilar.

Ularning fikricha tasavvuf-diniy-falsafiy va nazariy qarashlarning muayan tizimi sifatida olam haqidagi ta'limotni ochishga, odam bilan odamni yagona borliqdan iborat, u bittayu-bitta, yagonadir deb ta'riflaydilar.

Tasavvuf - komil insonlikka intilish, ham ruhan, ham jisman pok bo'lish, bularga maxsus riyozat bosqichlari orqali yetib borishни тапг'иб қилувчи ta'limotdir. U diniy va dunyoviy ta'limot bo'lib, undagi asosiy shior bo'lgan "Mo'minning mo'minga zulmi haromdir" qabilidagi shiorlar Qur'on oyatlariga asoslangan.

"Tasavvufning paydo bo'lishiga doir real tarixiy sharoit shundan iborat ediki, feodal munosabatlar yuzaga kelishi natijasida dehqonlar feodal iqtisodiy munosabatlarga e'tiroz bildirib boshlashadi. qolaversa, xalq islomga katga umid bog'lagan, uning vositasida "Nurli kelajak"ka ko'z tikkan edi. Ana shunday bir sharoitda tasavvuf yuzaga keladi.

Islom tasavvufi boshlanishidan bugunga qadar kechgan jarayonlar bir necha tarzda tasnif qilingan:

1. a) tariqatlardan avvalgi davr (h I-m VII asr);
b) tariqatlar paydo bo'lgandan keying davr (m.VIII-XIV asr);
v) keyingi davrlar tasavvufi.
2. a) tashkil topish davri (h.I-III asr);
b) shakllanish davri (h.III-m.VIII asr);
v) taqlid davri (m.IX-XV).
3. a) Muhammad a.s. dan Jo'neyd Bag'dodiygacha bo'lgan davr (h.I-III asr);

b) Jo'neyd Bag'dodiydan Ibn Arabiygacha bo'lgan davr (h.IV-VIIasr);

v) Ibn Arabiydan keying davr (h.VIII va undan keyingi asrlar)

4. a) zuhd davri;

b) tasavvuf davri;

v) vahdati vujud davri;

g) tariqatlar davri;

d) zamonamizdagi tasavvufiy jarayon.

Bundan tashqari, Tasavvuf jarayoni e'tiqod nuqtai nazaridan quyidagicha tasnif etilgan:

a) sunniy tasavvuf;

b) salafiy tasavvuf;

v) shiya tasavvuf.

Hijratning I va II asrlari tasavvuf tarixida "zuhd" davri deyiladi. Bu davrda zuhd xayotining markazi Basra shahri bo'lib, zohidlarning eng mashhur siyмосi-Hasan Basriy bo'lgan. Zuhd harakati Kufa, Madina, Xurosonda ham keng tarqalgan. "So'fiy" laqabi bilan tanilgan ilk zot kufalik Abu Hoshim as So'fiy (767y.v.a.).

Tasavvuf tarixida birinchi xonaqoh esa bir nasroniy amir tomonidan Ramla shahrida Abu Hoshim uchun qurilgan edi.

Tasavvuf ham diniy g'oyadir. Undagi "Mo'minning mo'minga zulmi haromdir" qabilidagi shiorlari soddadil odamlarni o'ziga maftun qiladi.

IX asr o'rtalaridan oriflik davri boshlanadi. Bu paytda xonaqohdar vujudga kelgan, tasavvuf maktablari shakllanib qolgan edi. XIII—XIV asrlarga kelib unda nazariy-ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham ko'tarilish davri kuzatiladi.

Tasavvuf islomning o'zi bilan birga rivojlanadi va keng omma orasiga yoyiladi. Shunga ko'ra bu oqimni dunyodagi ko'plab xalqlarning ijtimoiy-falsafiy hamda badiiy tafakkurida uchratish mumkin.

Tasavvuf o'ziga xos ba'zi xususiyatlarga ega. Ular quyidagilar:

- a) Tasavvuf, asosan e'tibori bilan Qur'oni karim va hadisi shariflarga asoslangan ilmdir.
- b) Tasavvuf nazariy bo'lishi bilan birga, tajribada ko'rinadigan amaliy ilm hamdir.
- v) Tasavvufda bilim manbai sifatida sog'lom fikr va aql bilan bir qatorda ilhom, kashf va sezgiga ham o'rin berilgan.
- g) Tasavvufiy bilimlarning eng muhim xususiyatlaridan biri yangi, aslligidir.
- d) Tasavvufiy bilimga ega bo'lish metodi qalbning poklanishidir.²²

2. Zohidlik, oshiqlik va oriflik

Insoniyat ma'naviy merosida, falsafa va adabiyot tarixida munosib o'rin tutgan sufiylik birdaniga yuzaga kelgan harakat bo'lmay, u uzoq tadrijiy tarixga ega. Sufishunoslar bu diniy oqimni dastlab, uch davrga: zoxidlik, oriflik va oshiqlikka ajratadilar. Ular sufiylarning o'zini ham orif sufiylar, zoxid sufiylar, faqir sufiylar, faylasuf sufiylarga ajratadilar²³.

Zohidlik davri so'fiylari (Ibrohim Adham, Hasan Basriy, Abu Hoshim Ko'fiy va boshqalar) taqvo va parhezlikni bosh maqsad deb bilgan bo'lsalar, keyingi, davr so'fiylari tafakkuriy-shuuriy rivojlanish—ya'ni dunyoni va ilohni bilish, tanishni asosiy maqsad deb hisoblaganlar. Birinchi davrni tasavvufni ibtidoiy davri deb tilga oladilar. Oriflik davri-ikkinchi davr IX asr o'rtalaridan

²² Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. 1999 y. 27-28 betlar

²³ Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. A. Jalolov va K. Xonazarov taxriri ostida. Toshkent: «Sharq», 1998. – 202 b.

boshlanadi va bir necha bosqichni o'z ichiga oladi. IX-X asrlar-xonaqohlar paydo bo'lishi, tariqat rusumlarining shakllanishi davri. XI-XII asrlar-tasavvuf maktablari, silsilalarning tarkib topishi davri. Bunda Misr, Bag'dod, Basra, Buxoro, Nishopur, Termiz, Balx shaharlari tasavvuf va tariqat markazlari sifatida muhim rol oynagan. Natijada Misr, Xuroson, Movarounnahr, Iroq va Turkiston maktablari shuhrat topgan. Davrning xarakterli jihatlaridan yana biri shundaki, bu paytga kelib kalom ilmi nihoyatda rivojlangan edi. Movarounnahrda Abu Bakr Kalodiy, al-Moturidiy (vaf 333/944y), al-Jubboiy (vaf.303/915y), Abu Hoshim (vaf.321/933), al-Ka'biy (vaf 319/931), Muso al-Ash'ariylar (vaf.324/935-936) bilan bir qatorda kalomning mumtoz davri asoschilari edilar. M.Imomnazarov zohidlik haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Zohidlik (zuhd) bu –irfon emas, ammo tasavvuf zohidlikdan ayrum ham emas"²⁴. Zohidlik, asketizm — tarki dunyochilik, saqlanish. Xudoning marhamatiga musharraf bo'lish uchun tarki dunyo qilish zarurligi haqidagi diniy tasavvur. Zohidlik xristianlikda monaxlikda ko'rinsa, islomda darvishlik, chilla o'tirish, ro'za tutish, zikr tushish kabilarda namoyon bo'ladi. Tasavvufda Zohidlik Allohning zikriga xalal beruvchi barcha narsalarni tark etish demakdir. Bunda Allohga shirk keltirishdan saqlanish va ibodatda riyodan xoli bo'lish; barcha gunohlardan va harom narsalardan saqlanish va nihoyat ortiqcha dunyoviy ashyolarga mehr qoymaslik nazarda tutiladi. Shariat va tariqat odoblariga bu xilda rioya etishni Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Xoja Ahror, Najmiddin Kubro va boshqalar targ'ib etganlar.

Islomda zohidlik an'analari paydo bo'lishi va rivojlanishining sabablari musulmon jamoasi yashay boshlagan dastlabki ikki asrdagi ijtimoiy-siyosiy ixtiloflar, chuqur g'oyaviy va ma'naviy izlanishlar bilan davom etgan diniy hayotning murakkablashuvi natijasidir. Zohidlarning o'ziga xos xususiyati Qur'on mazmuni ustida mushohada qilish, kundalik hayotda bu ilohiy kitob va payg'ambar xadislari ko'rsatmalariga qat'iy rioya etish, ko'p marta qo'shimcha namoz o'qish, bedorlik va ro'za tutish, xar qanday dunyoviy narsalardan yuz

²⁴ M.Imomnazarov,M.Eshmuhamedova "Milliy ma'naviyatimiz asoslari".Toshkent islom universiteti " nashriyoti.Toshkent-2001

o'g'irish, kundalik hayotda taqvoli bo'lish, xususan, ruxsat etilgan narsalar bilan man qilingan narsalarni qat'iy ajratish, dunyoviy va xarbiy hukumatlar bilan hamkorlik qilishdan voz kechish, o'zini taqdiri ilohiyga topshirish bo'lgan. Ular faqirlikni ulug'lab, oxiratni oylab tavba qilish kayfiyati bilan yashaganlar, berganiga shukur qilganlar, azob-uqubatlarga sabr-toqatli bo'lishni targ'ib qilganlar.

Tasavvuf- so'fiylik dastlab zohidlik ya'ni bu dunyo xoyu-xavasidan voz kechish harakati ko'rinishida bo'lib Bag'dod, Basra, Kufa, Damashq kabi shaharlarda keng yoyilgan. Ammo zoxidlik biz tushungan darajadagi tasavvuf emas, shu bilan birga tasavvufni zohidlikdan ayri xolda tasavvur etish xam mumkin emas. Chunki zohidlik harakatida tasavvufning maqomlari, qonun-qoidalari tugal ishlab chiqilmagan, muayyan tizimga tushib shakllanmagan ko'rinishda bo'lgan.

Ilk davr sufiylarining, aniqrog'i zohid va obidlarining o'ziga xos xususiyatlaridan - Qur'oni Karim oyatlari ustida chuqur fikr yuritish, Qur'on va Payg'ambar a.s. sunnatlariga qat'iy amal qilish, kechalarini nafl ibodatlar bilan bedor o'tkazish, kunduzlari ro'za tutish, hayot lazzatlaridan voz kechish, gunohdan saqlanish, hokim va harbiylardan o'zini uzoq tutish, halol va harom orasini juda uzoq tutish (vara'), o'zini Alloh ixtiyoriga topshirish (tavakkul) va hokazolarni ta'kidlash mumkin. Jumladan, faqr, rizo, sabr xususiyatlari ularga xos edi.

Vara' so'zining ma'nosi parhez, taqvo bo'lib bulg'anishlardan, ma'naviy zarar keltiradigan shubhalardan saqlanish demakdir. Shibliyning ko'rsatishicha, vara'ning uch ko'rinishi bor: til vara'i, ya'ni tilni bema'ni gaplar uchun ishlatmaslik, g'iybat-tuhmatga berilmaslik; ko'z vara'i-shubhali narsalardan saqlanish, g'aliz shakllarga boqmaslik; qalb vara'i, ya'ni past himmatni tark etish va noxush qiliqlarni qilmaslik. Ko'ngil man etgan jamiki narsalardan parhez qilish, tamadan saqlanish, mahrumlikdan qo'rqishdan hazar qilish.

Xullas, tilga, ko'zga, quloqqa va oyoqqa band solish. Zuhd-vara'ning davomi hisoblanadi, bu ham parhez, hazar qilish demakdir. Ammo bunda taom va ichimlikdan saqlanish, halol va haromni ajratishga alohida ahamiyat beriladi. Zuhd so'fiy uchun dunyo va oxirat tarki, dunyo moliga ega bo'laman, deb intilmaslikdir. Bu haqda Junayd Bag'dodiy: "Zuhd-qo'lni mulkdan xoli tutish, dilni esa Haqdan o'zga har narsadan pok saqlash demak."; G'azzoliy: "Zuhd dunyodan ihtiyoriy ravishda voz kechish va buning uchun qayg'urmaslikdir" deganlar.

Muhabbat tasavvufning asosiy ruknlaridan biridir. Ilohiy muhabbat-bu irfoniy tuyg'u juda ko'p irfoniy tushuncha va istilohlarning sharhi muhabbatga kelib bog'lanadi. N.Komilov "tasavvuf ishq otashida tug'ilgan tugyonli tafakkurdir,"²⁵-deb yozadi. Tasavvufni ilohiy muhabbat haqidagi ilm deyish mumkin. Chunki, tasavvuf ilohiy ma'rifatni egallash, Allohning sifat va ismlari orqali uning zotini bilish va tanishni talab qiladi. Buni aql tafakkur yoki nazariy bilimlar bilan emas, balki yashirin bir ichki tuyg'u, botiniy basirat, ya'ni muhabbat vositasida amalga oshirish mumkin, deb ta'lim beradi. Bu diniy- falsafiy dunyoqarashga ko'ra Haqqa muhabbat avvalo insonning o'ziga, o'zi yashab turgan olamga, tabiatga mavjudotga bo'lgan qalbning izhoridir. Zero, muhabbat mudroq qalbgga uyg'oqlik baxsh etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov "tilimizdagi mehr-oqibat, mehr- muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo. Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir oylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so'zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ongu shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarining amaliy ifodasidir"²⁶ - deb ta'kidlaydi.

²⁵ Komilov N.Tavhid asrori.-T.: 1999.-6.b.

²⁶ Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: 2008.-8.b.

Muhabbat tuyg'usi har bir shahsda o'z xarakter xususiyatidan kelib chiqqan holda tushuniladigan ruhiy holat bo'lib, uning mohiyati qadimdan insoniyat tafakkurini mashg'ul etib kelgan. Uni turlicha ifodalaydilar, tushunadilar va talqin etadilar. Jumladan, Platon: "Sevgi bir butunlikka erishishga tashnalik va unga ehtiros bilan intilishdir,"²⁷ - deb ta'rif beradi.

Insonparvarlik ezgulikni, yaxshilikni, vatanparvarlikni muhabbatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Muhabbatning ob'ekti doimo go'zallik, manfaatsiz go'zallik. U Allohmi, Vatanmi, yormi-muhabbat egasiga undan-da go'zalroq narsa yo'q. Yorga bo'lgan haqiqiy muhabbat Vatanga, insoniyatga bo'lgan muhabbatni inkor etmaydi, aksincha barqaror qiladi. Inson o'zi o'zgaga aylanganida, o'zgani esa o'ziga aylantira olganida haqiqiy muhabbat egasi hisoblanadi.

Muhabbat tasavvufda husni mutlaqqa - Allohga bo'lgan kuchli, shiddatli sevgi bo'lib, tariqatning eng muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. haqiqiy muhabbat - husni mutlaqqa, majoziy muhabbat esa odam va olam go'zalligiga bo'lgan oshiqlikdir. Sufiylar nazarida esa jannat umidida toat-ibodat qilish ham ta'maning bir ko'rinishidir.

Holbuki, sufiy uchun na dunyodan va na oxiratdan ta'ma bo'lmasligi kerak. Yagona istak bu - Allohning diydorini ko'rish, xolos. Mashhur sufiy ayol Robiya Adaviya (714-801 y.y.) Tangriga munojotlarida aytar ekan: "Ey Yori aziz, agar jannatning ta'masida toat qilayotgan bo'lsam jannatdan benasib qil, do'zaxingdan qo'rqib ibodat qilayotgan bo'lsam, meni do'zax o'tida kuydir, men roziman. Agar jamolingni deb ibodat qilayotgan bo'lsam meni jamolingdan benasib etma"²⁸.

Robiya al-Adaviya haqida Olmon olimasi Annemarie Shimmel: "Robiya sufiylikka yagona Allohni sevish tushunchasini olib kirgan. Shuning uchun islomdagi sufiyona muhabbat tarixi shu ayol nomi bilan boshlanadi"²⁹-deb ta'kidlaydi.

Mazkur fikrlardan ko'rinib turibdiki, Robiya al-Adaviya Xudoga nimadandir qo'rqib, yoki biror narsa ilinjida munjoaat qilmagan, balki mahbub sifatida, ya'ni

²⁷ Abdurahmonov A. Saodatga eltguvchi bilim. - T.: Movarounnahr. 2003. - 562 b.

²⁸ Annemarie Shimmel . Jonon mening jonimda T. Sharq nashriyot matbaa kontserni bosh tahriryati.1999 -14 b.

²⁹ O'sha asar - 14. b

qalb bilan muhabbat izhorini qildi. Shu ma'noda shariat Islomning tashqi-huquqiy ko'rinishi bo'lsa, tariqat uning ichki-axloqiy, yuksak bosqichdagi ko'rinishi hisoblanadi. Xudo ham o'z o'rnida insonni ayricha bir muhabbat bilan "mukarram" qilib yaratgan.

Tasavvufning mohiyati ikki tomonlama muhabbatni talqin qilish bo'lib, tasavvuf axloqshunosligida muhabbat his –tuyg'ulik maqomidan tushuncha darajasiga ko'tarilgan.

Allohni sevish, Uning zoti sifatini tanish va bilish ko'ngilni nafs u hirs g'uboridan tozalab, botiniy musaffo bir holatda iloh vasliga yetishish va bundan lazzatlanish g'oyasini keng targ'ib qiladilar. Inson ruhi ilohiydir va demak asosiy maqsad - ruhiy-ma'naviy yuksalishdir.

Bizning kundalik lug'atimizda mazkur tuyg'uni ifodalashning bir necha istilohlari mavjud bo'lib, ular jamoatchilik orasida keng qo'llaniladi. Muhabbat va ishq shular jumlasidandir.

Muhabbat arabcha so'z bo'lib, "Habba" o'zagidan yasalgan va mehr, sadoqat, yaqinlik ma'nolarini ifoda etsa-da, lug'aviy ma'nosi "urug'" ya'ni ustiga tuproq tortilgan urug' ma'nosini anglatadi. Xayotning asli va asosi ana shu urug' bo'lganidek, diniy, ma'naviy, jismoniy va ruhiy hayotning urug'i ildizi va daraxti ham ana shu muhabbat hisoblanadi³⁰.

Ishq so'zi esa arabcha "ashq" kalimasidan olingan. Ashq bir chirmovuc o't bo'lib, u o'ralib yopishib olgan o'simligini quritmay qoymaydi. Demak, kuchli, shiddatli ishq o'z sohibini ashq o'simligi singari quritadi.³¹

Oshiqlik-haqsevarlikning, ma'rifatga shaydolikning oily ko'rinishi. Qolgan barcha hollarda soxtakorlik, riyo bo'lishi mumkin, ammo ishqda, oshiqlikda bu illat bo'lmaydi. Faqat ishq kishini adabiyatga-baqa olamiga olib boradi. Muhabbat-tasavvufning asosiy ruknlaridan biri. Tasavvuf ilohiy muhabbat haqidagi ilmdir deyish mumkin. Chunki tasavvuf Allohni bilish va tanishni yashirin ichki tuyg'u, muhabbat vositasida amalga oshirish mumkin, deb targ'ib qiladi. So'fiyning butun

³⁰ Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. - T.: Movarounnahr. 2003. - 561 b.

³¹ O'sha asar. – 562 b.

intilishlari oliy Haqiqatga fidoiy muhabbatdan iborat. Ishq solik qalbini bir zum ham tinch qoymaydi, olam va odam mohiyatini, ilohiy mo'jizalarni idrok etishga yo'l ochadi; muttasil ruhiy-ma'naviy yuksalishga hidoyat qiladi. Ishq-ilohiy ma'rifatni kashf etuvchi qudrat, solik vujudini yondirib, mahbub visoliga yaqinlashtiradigan poklovchi muqaddas olov. Qalbdan ishq qanchalik kuchli bo'lsa, solik ma'rifat zinalaridan shuncha bardam ko'tarila boradi, nafsiy sifatlarni tark etib, kamolot cho'qqilarini zabt etaveradi. Ishq insonni ma'rifatga olib boradigan qudrat, insonni moddiy asosdan poklovchi, xoli etuvchi muqaddas olov. Ishq solik vujudini kuydurib, ruhini musaffo etadi, solikda tajrid va tafrid (poklanish, yakkalanish) yuz beradi.

Shu bois oshiqalar xalqdan chekinadilar, chunki ularning ruhi dunyoviylikni yoqtirmaydi, xilvatni qumsaydi, hamma vaqt Alloh bilan birga bo'lishni istaydi. Ishq kamolot kaliti va vujudimizni oltinga aylantiruvchi kimyo. Ishq odamni hayvonlikdan xalos etadi, odamzod naslini badbaxtlik, falokotlardan qutqaradi. Ilohiy ishq ma'naviy kamolotga olib boruvchi kuch. Dunyo muhabbatidan yuz o'girib, ilohiy ma'rifatni egallagan odam, dunyoviy-nafsoniy sifatlarga barham berib, ilohiy sifatlarni o'zlashtiraverib, Allohning o'ziga qo'shiladi, ya'ni Zotda foniy bo'ladi. Muhabbatning xotimasi fanodir. Shu bilan so'fiy ilohiy Zotning bir qismi ekanini isbotlaydi. Orif-ilohiy ma'rifatni egallagan odam. Ishq odamning odamgagina bo'lgan muhabbatidan iborat emas. Bu ishq insonning Haqqa, haqiqatga muhabbati hamdir. Muhabbatning maskani—ko'ngil. Shuning uchun ham tasavvuf adabiyotida ko'ngil obrazining atroflicha tasviri kuzatiladi.

Ishq va muhabbat masalasida I. Haqqulov shunday fikr bildirgan: “ Ishq so'zi Qur'onda uchramasligi uchun ilk zohidlar muhabbat so'zini ishlatganlar. Ishq kalimasini birinchi bo'lib tasavvufiy isteloh o'laroq Abu Hasan Nuriy qo'llagan.”³²

Hujviriyy “Avvallari so'fiylar Allohga qaratilgan ishq bo'ladi, lekin Allohda ishq bo'lmaydi, deb hisoblar edilar. Bunday hissiyot sevganidan ajralganlarda bo'ladi. Inson Allohdan ajralgan, biroq Alloh insondan ayriliqda emas, shuning

³² Haqqulov I. Taqdir vatafakkur. -T.:2007- 36.b.

uchun inson Allohga ishq qoyishi mumkin. Bu istilohni Allohga daxli yo'q"³³-deb ta'kidlaydi.

Abdulqodir Iso ham muhabbat haqida: "Allohning O'z bandasiga bo'lgan muhabbati va bandaning Allohga muhabbatining asosida Allohning: "Alloh ularni sevadi va ular, Uni sevadilar"³⁴- degan oyati bor deb aytgan.

Muhabbat barcha davr sufiylari, mutasavviflarini oylantirgan tushunchalardan biri bo'lib kelgan. Uni har bir mutasavvif o'z tafakkuri, hissi doirasida izohlashga harakat qilgan. Abu Bakr Kalobodiy muhabbatni aynan shu nom bilan atab uning mazmun mohiyatini umumiy izohlagan bo'lsa-da, Abdulqodir Iso muhabbatni kengroq tushuntirib, unga olib boradigan yo'llar, muhabbat belgilari va darajalarini ko'rsatib beradi.³⁵

Ibn Arabiy bu borada shunday yozadi: "Odamlar Allohga bo'lgan muhabbatning mohiyatini aniqlashda turli guruhlariga bo'linib ketdilar. Lekin men uning mohiyatini anglagan kishini ko'rmadim va bu mumkin ham emas".³⁶

Shayx Najmiddin Kubro "Muhabbatning avvali shavq noqisligi bois oldin tavajjuh bilan birlikda bo'ladi. Muhabbat va ishq holiga yuksalgach esa tavajjuhdan ajraladi va har yondan har yonga parvoz etgan qush holiga yetar, zero sevgi shundadir. Ishq insonning yurak bag'rini yondirguvchi bir otashdir. U aqlni shoshirtirar, ko'zni ko'r, quloqni kar aylar. Ammo u eng ulkan qo'rquvlarni ham kichraytirar. Butun diqqatni ma'shuqaga jalb etar".³⁷-deb yozgan.

Demak, shu sababdan inson olamda Haqning jamolini ko'rishni istaydi va shu go'zallikni sevadi. Tasavvufda ishq-sevgining oxirgi darajasi va mukammal ko'rinishi bo'lib, oshiq ishq maqomiga erishgunga qadar qalb va ruhni oliy darajada yuksaltirishi kerak.

³³ Ал-Худжвири. Раскрытие скрытого. М.: Единство, 2004.-с.307.

³⁴ Абдулкадыр Иса. Истина суфизма. Ансар. 2004.- с.174 .

³⁵ O'sha asar.169-176 betlar

³⁶ Абдулкадыр Иса. Истина суфизма. Ансар.-с. 2004.-169.

³⁷ Najmiddin Kubro.tasavvufiy hayot.Tarj. haqqulov I. T. 2004.157-b.

3. Tasavvuf ta'limotida shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat bosqichlari

IX asr davomida Tasavvuf nazariyasi va amaliyoti ustida faol ish olib borildi. Bir qancha sufiylik maktablari paydo bo'ldi, ular orasida Basra maktabidan tashqari Bag'dod va Xuroson maktablari ham birmuncha ta'sirga ega edi. Ularning vakillari inson va uning Xudoga munosabati qanday bo'lishi kerakligiga haqidagi ta'limotni yaratdilar. Ruhiiy kamolotga erishish yo'llarini ko'rsatib berdilar.

Tasavvuf insonning ma'naviy kamolotga erishish yo'lidir. Bu yo'l to'rt qismga ajraladi:

1. Shariat (ma'naviy komillikning ilk bosqichi)
2. Tariqat ("yo'l", tasavvufning amaliy qismi). U albatta ustoz (pir, murshid) bilan egallanadi.
3. Ma'rifat ("bilmoq", bu bosqichga erishgan zohid dunyoning hamma jismida, har bir voqea-hodisada Olloh irodasini, uning sifatlarini ko'ra oladi. Ammo bu hali o'zlashtirishning aql bilan bog'langan bosqichi).
4. Haqiqat (tasavvufning eng yuqori - oliy bosqichi).

Tasavvufiy asarlarda bu atamalar haqida ko'p fikru mulohazalar bildirilgan. Ularda shariat asos va birlamchi ekani, tariqat, ma'rifat va haqiqatlarning bir-biriga bog'liq bo'lgani qayd etilgan. Shariat yo'lida mukammal bo'lmagan kishiga tariqat, ma'rifat va haqiqat martabalari nasib etmaydi...Bejiz emaski, oriflar: "Shariat bir daraxtdur, tariqat-uning shoxlari, ma'rifat-yaproqlari, haqiqat-mevalari. Daraxt bo'lmasa navda ham, yaproq ham, meva ham bo'lmaydi", deya ta'lim berganlar".³⁸

1-bosqich - shariat. Bunga ko'ra, Tasavvuf ahli avvalo shariatning barcha talablariga bo'ysunishi kerak. Shariat ma'naviy komillikning ilk bosqichi hisoblanadi. Unda asosiy islomiy talab va qoidalar o'rganilgan. "Qur'on" va

³⁸ Shayx Najmiddin Kubro. Tasavvufiy hayot. Toshkent. 2004 yil. 254-255 betlar.

hadislardagi axloqiy-falsafiy, ilohiy ko`rsatmalarning mohiyati o`zlashtirilgan. Oddiy so`fiy zohid shu bosqichdan yuqoriga ko`tarila olmagan.

Shundan keyin 2-bosqich - tariqatga ko`tarilish mumkin. Bunda muridlar o`z pirlari - murshidlarga itoat etishi, o`z shaxsiy istaklaridan voz kechishi shart.

“Tariqat” so`zining ma`nosi “yo`l” demakdir. Bu yo`lda inson, ya`ni tasavvuf yo`liga kirgan kishi ruhiy-axloqiy kamolot manzillariga yetishni maqsad qilib oladi. Odatda, tariqat tasavvufning amaliy qismi hisoblanadi. Bu bosqichda shu yo`lga kirgan shaxs (u “solik” deb ataladi) ning vazifalari, uning ustoz — pirga ergashish qoidalari va bir qadar ahloq-odob meyorlari haqida ma`lumotlar olinadi. Tariqat, albatta, ustoz (pir, murshid) bilan birga egallanadigan bosqichdir. Bunda solik o`z ixtiyori, irodasini pir qo`liga beradi. Tariqatning irodat deyilishiga sabab ham shundadir. Tariqat va uning maqomatlari ma`lumotlarga qaraganda, birinchi marta Zunnun Misriy tomonidan bayon etilgan ekan³⁹.

Bu bosqichdan o`tganlar yuqoriroq, 3-bosqich - ma`rifatga ko`tariladilar, bunda koinotning birligi Xudoda mujassam bo`lishi, yaxshilik va yomonlikning nisbiyligi aql bilan emas, qalb bilan anglab yetiladi. “Ma`rifat” arabcha “arafa” so`zidan olingan, uning ma`nosi “anglab yetmoq”dir. Tasavvufda ma`rifat bosqichi qanday o`rinni egallashi, qanday ma`noni anglatishi haqida mashhur so`fiy Sari Saqatiy (vafoti 251 h.y. 865-m.y.) shunday deydi: “Tasavvuf uch ma`noni o`z ichiga olgan atamadir:

- 1) Ma`rifat nuri, vara` nurini so`ndirmaydi.
- 2) Botin ilmiga oid biror so`zni kitob (ya`ni Qur`on) va sunnatga qarshi ishlatmaydi.
- 3) Karomatlarni, sirlarni, Alloh bilan o`zining orasidagi xos sirlarni elga bildirmaydi”⁴⁰

Tasvuf nazariyotchilaridan biri Abdurazzoq Koshoniy (1329 y.da.v.e) ma`rifatga quyidagicha ta`rif bergan: “Ma`rifat muxtasar ilmlarni tafsilotlar

³⁹ Najmiddin Komilov. Tasavvuf. - T.: Movarounnahr, 2009. - B. 23.

⁴⁰ Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. - T.: Istiqlol, 1999. - 17 b

suratida tanimoqdir, ilohiy ma’rifat, ilohiy zot va sifatlarni ahvol va xodisalar tafsili va nuzul bo’lgan asarlar suratida tanish demak”⁴¹.

Demak, moddiy dunyodagi jamiki ilm, insonlarning to’plagan hikmatdonishlari hali ochilmagan barcha siru asrorlar Allohga tegishli, Alloh hikmatlarining jamuljami, bizning bilimlar esa, uning tafsiri, sharhi. Shunday ekan, Allohni bilish uchun biz uning sifatlarini bilishdan zotini bilishga tomon borishimiz kerak bo’ladi.

Bunda darveshlik darajasiga yetish, barcha azob-uqubatlarga toqat etish, pok xislatlarni izlash, Ollohni tanish, shariat va tariqatning barcha shartlariga amal qilish, bu dunyodan yuz o’girish, oxiratni afzal bilish, haqiqat sirlaridan ogoh bo’la borish ko’zga tashlanadi.

Bu bosqichga erishgan solik dunyoning hamma jismida, har bir voqeahodisada Olloh irodasini, uning sifatlarini ko’ra oladi. Ammo bu hali o’zlashtirishning aql bilan bog’langan bosqichi hisoblanadi.

Ilohiy xislatlarni anglashda yolg’iz aqpnig kuchi ojizlik qiladi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida dastlab Kuntug’di va Oyto’ldi — ikki donishmand dunyo hodisalari haqida suhbatlashadi. Oyto’ldi vafotidan so’ng uning o’g’li O’gdulmish ayni jumboqlar ustida bosh qotiradi. Uning aql timsoli ekanligini nazarga olaylik. Adib shu uch obraz bilan kifoyalanmaydi. Balki, Zohid— O’zg’urmish obrazini ham kiritadi. Demak, shu asar qahramonlarining tanlanishidayoq tasavvufning boshlang’ish yo’liga ishora bor. Tasavvuf ta’limotida esa “ma’rifat” tushunchasi, asosan ikki qismga bo’linadi. Ular ayni paytda birlashib, “ma’rifat” tushunchasini hosil qiladi: 1. “Ma’rifatun-nafs”, “Ma’rifatulloh”. Qachonki, “Ma’rifatun-nafs” hosil bo’lsa, “Ma’rifatulloh” hosil bo’ladi. “Ma’rifatulloh”ni anglagan zotlar esa Allohni tanigan hosoblanadilar.

⁴¹ Komilov N. Tasavvuf. Birinchi kitob. -T.: Yozuvchi. 1996. -36 b.

Tasavvufda tafakkurning eng muhtasham, eng zavqli va hosildor maydoni ma'rifatdir.

Ahmad Yassaviy ta'kidlaganidek:

Ma'rifatni minbariga minmaguncha,

Shariatning ishlarini bilsa bo'lmas.⁴²

Ma'rifatni minbarini egallash oson ish emas. Aks xolda Xoja Bahouddin Naqshband hazratlari, "Tavhid siriga yetsa bo'lur, ammo ma'rifat siriga yetish dushvordir"-demagan bo'lardi. Haqiqatda ham tavhid ma'rifatning yuqori, ammo bitta tarmog'idir. Ma'rifat Haqni tanishga g'ayrat qilishdir.

Abu Bakr Kalobodiy fikricha "ma'rifat- bu kashf qilish ilmlarining ketma-ketligi boyicha, zikrlarning vujudiga rioya qilgan holda, fikr mehmonlariga sirlarni hozir qilishdir"⁴³ - deydi. Ya'ni Allohning ulug'ligi sirini mushohada qilishdir.

Hoja Bektoshi Valiyning obrazli ifodasi boyicha "Ma'rifat shunday bir daraxtdurki, uning boshi-tavhid, tanasi-iymon, yaproqlari-islom, tubi-yaqinlik, ildizi-tavakkul, butoqlari-nahyi munkar, suvi-xavf va rajo, mevasi-ilm, tuprog'i – komil insonning ko'nglidir. Boshi arshdan ham baland bu Daraxtning besh navdasidan biri shavq, ikkinchisi–muhabbat, uchunchisi inoyat, to'rtinchisi–irodat, beshinchisi esa –qurbiyatdir".

Demak, ma'rifat sohibi bo'lish ana shuncha haqiqat va fazilatlarning sohibi bo'lish, ma'rifat siriga yetish uchun ana shuncha haqiqat va xususiyatlarning asroridan ogoh bo'lish lozim ekan. Ma'rifat inson ongi yoki ko'ngliga tashqaridan olib kiriladigan, ya'ni zohiriy bir ne'mat yoki qudrat emas, balki insonning ilohiy mavjudligidan yuzaga keladigan fikriy va ruhiy qudratdir.

⁴² Ibrohim Haqqul. Taqdir va tafakkur. - T.: Sharq, 2007. - B. 33-34.

⁴³ Abu Bakr Kalobodiy. At-Ta'arruf. Tarj. Otaqul Mavlonqul o'g'li va Mavluda Otaqul qizi. Toshkent. 112 bet

Ma'rifat eng avvalo, qalb mushohadasi va o'zni anglash degani. Ma'rifat Allohning bandasiga qilgan ehsoni. Faqrlik ila botinni poklash, jon-u ko'ngil bilan Haqqa oshiq bo'lish. Haqni tanigan bir orif holiga kelish. Tasavvuf ta'limoti, ma'lum bir ma'noda, nubuvvat ta'limoti va ma'rifatga sodiqlikdir.

4-bosqich -haqiqat hisoblanib, zohid “shaxs sifatida tugab”, “haqiqat”ga, haqqa yetishadi, unga singab ketib abadiylikka erishadi. Bunga sufiylar maxsus ruhiy va jismoniy harakatlar - sig'inish va ibodatlar orqali intiladilar.

Haqiqat tasavvufning eng yuqori—oliy bosqichidir. Unda ezgulik va yomonlikning moxiyatini to'la anglab etish, har qanday ko'ngil istaklarini pinhon tutishning uddasidan chiqish hamda shariat, tariqat, ma'rifat talablarini to'liq bajarish talab qilinadi.

Shayx Ahmad Yassaviy: “Haqiqat ko'ngil (sir) bilan amal qilishdir”, dedilar. Demak, haqiqatga ochilgan birinchi va asosiy eshik shariatdir. Uning ahkomlarini mukammal bajarishga harakat qilish lozim. Tariqat-haqiqat yo'lining ikkinchi eshigidir. Haqiqat hududsiz bir daryodir. Bu daryoda shariat kemasi bilan sayr etiladi. Faqat haqiqat maqomiga yetishish uchun kemadan chiqib dengizga g'arq bo'lish kerak. Shariat haqiqatning zohiri bo'lsa, haqiqat shariatning botinidir. Haqiqat bir sirdir. Bu maqomga haqiqiy oshiq qullar erishadi. Bu maqomda ikkilik yo'q. Unda qahr ham, lutf ham barobar. Bu maqom bir shahardir. Uning sultoni Haqdir. Bu maqomga etti nafs martabalaridan oshgan, qalbini salim⁴⁴ xolatiga keltirgan, hayotini taqvo asosiga qurgan, sirrini oshkor etmagan, “karramno”⁴⁵ tojini kiygan insonlargina noil bo'ladi. Haqiqatning samarasi jannat va jamolullohdur. Ushbu to'rtta bosqich “Maqolot”⁴⁶ asarida Qur'oni karim va hadisi shariflar bilan batafsil bayon qilib berilgan.

Tasavvuf, asosan ma'naviy jarayondir. Unda inson qalbini boyitadigan omillarga chorlov nihoyatda kuchli.

⁴⁴ Shariatda shahvatdan, aqidada shubhadan xoli bo'lgan qalb.

⁴⁵ Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va tafsiri muallifi: Shayx Abdulaziz Mansur. - Toshket : Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007. -Isro surasi, 70-oyat.

⁴⁶ Xoja Bektoshi Valiy. Maqolot. - Toshkent, 2000. - B. 7-22.

Sufiylar haqqa yetishish mumkinligi haqidagi fikrlari, shariat tomonidan buyurilgan amallarni bajarishdan bosh tortishlari tufayli goh-gohida ma'murlar ta'qibiga ham uchrab turadilar (at-Tustariy, Hakim at-Termiziy, an-Nuriy).

Mashhur mutasavvif Husayn Mansur Halloj "Anal haq" ("men al-Haqman") degani uchun Bag'dodda xalifa tomonidan dorga osildi (921). O'z yurti Tabaristonda katta obro' qozongan Abu Yazid Bistomiy ham shakkoklikda ayblangan edi.

Bu talablarni bajarish borasida inson shariat qonunlarini qattiq tutib, unga umrining oxirigacha amal qilishi, ongi va ruxiy xislatlari asosida ma'rifatga erishishi, yuksak ahloq va odobga muyassar bo'lmog'i va nihoyat barcha orttirgan xislatlarini, fazilat hamda insoniy sifatlarini amalda qo'llab, insonning komillik darajasiga ko'tarilishga, o'z-o'zini anglab yetishga erishadi.

Birinchi bob boyicha xulosalar

Tasavvuf inson ongini quruq, ma'nosiz g'oyalar bilan band qilish emas, u dunyoqarashni tubdan o'zgartirishga, tafakkurni rivojlantirishga intilishdir.

Prezidentimiz aytganlaridek, "insonga xos orzu intilishlarni royobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, oylaymanki, o'rinli bo'ladi." Haqiqatan ham mana shu uyg'unlik insonni, u yashab turgan zaminni ulug'laydi, yuksaltiradi.

Sufiyalar boshqa kishilardan pok va g'aribona xayot kechirishi, doimiy toat-ibodatda bo'lishi va faqat ilohiy ruxga qo'shilishni maqsad qilib qoyishi bilan ajralib turganlar. Ular uchun yagona istak Allohning diydoriga yetishishdir. Dunyoviy xamma narsadan voz kechish, oxir-oqibatda o'zlikdan kechish-sufiylik ta'limotining mohiyati sanaladi. Buyuk sufiy Boyazid Bistomiy aytadilarki: O'zingdan o'tding, Allohga yetding. Xoja Baxouddin Naqshband aytadilarki: Bizning xech narsamiz yo'q, lekin xech narsadan kamimiz xam yo'q. O'sha "xech" narsa ketidan yugurib g'am tashvishda xam emasmiz. Egnimizda janda, orqamizda go'riston, agar o'lsak xech bir motam kerak emas.

Sufiylik – tasavvuf avvalo kishining ko'ngliga, qalbiga tayanadi. Ko'ngilni, qalbni tarbiyalashga, pokizalashga intiladi. Chunki Allox faqat kishining pokiza qalbidagina jilva qiladi. Sufiylik ta'limotida insondagi jamiki xudbinlik, illat, razolat, boylikka xirs qoyish jism extiyoji va nafs ta'masidan kelib chiqadi, deb qaraladi.

Sufizm (tasavvuf) aslida komil inson va inson kamoloti to'g'risidagi ta'limot desa bo'ladi. Komil inson bo'lish uchun esa avvalo jism va nafs extiyoji va ta'masini yengish kerak. Dunyoga, boylikka mehr qoyish insonni nafsga qul qilib qoyadi. Sufiylik yo'lini tutgan kishi nafsni rad etadi. Nafs barcha xudbinlik va razolat, falokat va ma'naviy xalokatning sababchisi. Nafs insonni tubanlik botqog'iga botiruvchidir. Ana shu falokat va illatlardan forig' bo'lishning birdan-bir to'g'ri yo'li nafs extiyojini yengish, bosib o'tishdir. Buning uchun dunyo

muhabbatidan voz kechish va Allox muhabbatiga ko'ngil bog'lash darkor. Sufiylik buni insonning o'zligini anglash yo'li deb qaraydi. Xoja Baxouddin ta'biri bilan aytganda: O'z nafsining yomonligini tanish o'zligini tanishdir.

Tasavvuf axli uchun asosiy masala qalbni poklash, uni xudbinlik zangidan tozalash bo'lgan. Ular bu ishni nafsni poklashdan boshlaganlar. Buning uchun nafsni poklash yo'llarini ishlab chiqqanlar. Nafsni va shu orqali ko'ngilni poklash esa riyozat chekish orqaligina bo'ladi. Riyozat chekish shunchaki, sabr-toqatli bo'lish, qiyinchiliklarga bardosh berish emas. Balki, Xaq yo'lida ongli ravishda inson o'z oldiga ulug' bir maqsadni belgilab, unga yetishish uchun ixtiyoriy ravishda barcha qiyinchiliklarni zimmasiga olib, to'siqlarni yengib o'tib, maqsad sari olg'a intilish riyozat bo'ladi. Tasavvuf tariqatlari riyozat chekish orqali inson nafsini va ko'ngilini poklash yo'li bo'lib, uni temirchining olovli kurasiga qiyos etish mumkin. Unda inson ko'ngili avval mumdek yumshab shakl oladi, so'ng chiniqtiriladi va sayqal beriladi. Oxirida ko'ngil po'lat kuzgu singari sayqal topadiki, o'zida ilohiy nurni akslantirib, oy singari nurlanib, o'zi xam atrofga ziyo tarata boshlaydi. Ana shunday ko'ngil egasi komil insondir. Bunday inson o'zidan atrofga ziyo taratadi, o'zga insonlar ruhini xam ma'rifatli etadi, ko'ngillarni nurlantiradi. Buyuk sufiylar, tasavvuf tariqatlarining yo'l boshchilari ana shunday komil inson bo'lganlar. Ular riyozat chekish orqaligina u dunyo va bu dunyo saodatiga erishganlar.

Tasavvuf shayxlari va ularning shogirdlari sufiylik yo'lini tutgan kishilarni na dunyodan, na oxiratdan ta'ma qilmaslikka, nafs ko'chasidan o'tmaslikka undaganlar. Sufiylik odob-axloqli, qalbi va ruhi pok, bilimi yuqori insonlarni ya'niki komil insonlarni tarbiyalab kamolga yetkazishni o'zlarining asosiy burchi va maqsadi deb bilganlar. Boshqa so'z bilan aytganda, insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti tasavvufning asosiy maqsadi bo'lib, bu maqsad yo'lida xar bir ulug' shayx o'z tartib qoidalarini ishlab chiqqan va shu asosda turli tariqat suluklari shakllangan.

Yuqoridagilarni umumlashtirib “tasavvuf – bu ilohiyat olami, inson ma’naviyati, ruxiyati, extiyojlari va uning Xudoga munosabati xaqidagi falsafiy ta’limot”⁴⁷ – deyishimiz mumkin.

Sodda qilib aytganda, tasavvuf inson qalbiga sayqal berish ilmidir. Xalqimiz, ayniqsa yosh avlod bu ilmdan 70 yil davomida bexabar qoldi. Mustaqillik tufayli boshka ma’naviy qadriyatlarimiz singari tasavvufiy qadriyatlarimiz qayta tiklandi, ular xar jihatdan o‘rganila boshlandi.

⁴⁷ Bo’ronov Q.Xalqimiz ma’naviyati va ma’rifatining teran ildizlari.35 bet.

II BOB. TASAVVUF TA'LIMOTI NAMAYONDALARI MEROSIDA KOMIL

INSON G'UYASI

1. Turkistonda tasavvuf tariqatlari: Yassaviya, Kubroviya va Naqshbandiya

Tasavvuf ta'limoti taraqqiyotida Turkiston farzandlarining xizmati beqiyos bo'lgan. Xoja Xakim at-Termiziy, Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Shayx Najmiddin Kubro, Xoja Ali Romitaniy, Abu Ali al-Farmadiy, Yusuf Hamadoni, Bahouddin Naqshband kabi siymolar ilohiy Ma'rifat yo'lining rahnamolari bo'ldilar. Ular yaratgan ta'limot va ilgari surgan ma'naviy-axloqiy g'oyalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. "Markaziy Osiyo tarixida aql-idrok bilan jasorat, diniy dunyoqarash bilan qomusiy bilimdonlikni o'zida mujassam etgan buyuk arboblarning ko'p bo'lgan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Xoja Bahouddin Naqshband, Xoja Axmad Yassaviy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz milliy ma'naviyatimizni rivojlantirishda ulkan hissa qo'shdilar, xalqimizning milliy iftixori bo'lib qoldilar".⁴⁸

Shunday siymolardan biri ilm - fan va madaniyatimiz tarixida yorqin iz qoldirgan, buyuk mutasavvif Shayx Ahmad Yassaviydir.

Chunonchi, Ahmad Yassaviy hikmatlarida ilgari surilgan axloqiy pand-nasihatlardan molparastlikni fosh etish, kishilarni insofli, diyonatli, iymonli bo'lishga chaqirishda foydalanish o'rinli. Yassaviy inson hayotidagi katta kurash - nafsni taslim etishga xizmat qiladigan kurash deb hisoblagan. Nafsga mag'lub shoh - qul, nafsdan ustunlikka erishgan g'arib - shohdir, deb aytadi. Nafs inson uchun katta yovdir. Shu yovning boshini yanchgan, uni yenggan, nafsga taslim

⁴⁸ Karimov I.A. Ўzbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -Toshkent, 1997.140-bet.

bo'lmagan kishining g`ururi va insoniy qadr-qimmatini hech kim poymol qila olmaydi, deb bilgan. O`z hikmatlaridan birida shunday deydi:

Nafs yo`liga kirgan kishi rasvo bo`lur,

Yo`ldan ozib, toyib, to`zib gumroh bo`lur.

Yotsa - tursa shayton bilan hamroh bo`lur....

U nafs bandalariga qarata “Nafsni tebgil, nafsni tebgil ey badkirdor” deb murojaat etadi va “Nafsini meni yo`ldan urib xor ayladi, termultirib xaloyiqqa zor ayladi”, - deb nafs bandalarini tanqid etadi.

Nafs insondagi butunlikni, iymonni sindiradi, Ma`naviy jihatdan jarlikka qulatadi. Shu bois “Nafsni tanib mehnat etsa rohat”, - deb xitob qiladi. Bu g`oyalar bizning hozirgi kunimiz, tarbiyamiz uchun g`oyat muhim.

Ahmad Yassaviy: “Shariat zohirda a`zolar bilan amal qilish, tariqat qalb bilan amal qilish, haqiqat esa sir (qalbdagi javhar, ko`ngil) bilan amal qilishdir”⁴⁹, deganlar.

Axmad Yassaviy-Turkistonda shakllangan tasavvufning yirik namoyondalaridan biri. Yassaviy donishmand, shoir, Yassaviylik tariqatining asoschisi. Sayramda Ibrohim ota oilasida dunyoga kelgan. Manbalarda 1091-1167 yillarda yashaganligi qayd qilingan. U Buxoroda Abduxoliq G`ijduvoni bilan birgalikda mashhur shayh, tasavvufning yirik vakili Yusuf Xamadoniydan saboq olgan. So`ngra Turkistonga qaytib, mustaqil Yassaviya tariqatiga asos solib, o`z talimoti boyicha muridlar tayyorlagan. Mazkur tariqatda murid amal qilishi shart bo`lgan o`nta qoida, talab mavjud. Ular asosan shayx va murid o`rtasidagi munosabatlarga oid. Bular quyidagilardan iborat:

1. Murid xech kimsani o`z piridan afzal ko`rmasligi, doimo unga taslimiyat izhor qilmog`ining shartligi;

⁴⁹ Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat. Yangi topilgan namunalari. - T.: Movarounnahr. 2004. - B.148.

2. Murid shunchalik zukko va idrokli bo'lishi kerakki, u o'z piring xatto ishoralarini ham mukammal anglay oladigan bo'lsin;
3. Muridning piring barcha so'zlari va ishlariga sodiq bo'lishi xamda unga mutloq mute bo'lishi;
4. Muridning o'z piri barcha topshiriqlarini chaqqonlik bilan sidqidildan bajarib, piri xamisha rozi qilib yurmog'i;
5. Muridning o'z so'ziga sodiq, va'dasiga amal qiluvchi, piri ko'nglida hech qanday shubha tug'ulishiga o'rin qoldirmasligining shartligi;
6. Muridning o'z vadasiga vafodorligi va so'zida ustuvor turmog'ining lozimligi;
7. Muridning o'z ixtiyoridagi barcha mol-mulkini, butun bor-yo'g'ini o'z piriga baxshida etmoq uchun tayyor turmog'i;
8. Muridning o'z piri barcha sir-asrorlaridan ogoh bo'lmog'i;
9. Muridning o'z piri barcha takliflarini nazarda tutib, uning mushkulotini oson qilmog'ining, pandu-nasihatlarini bajo keltirmog'ining shartligi;
10. Muridning Alloh visoli uchun o'z piri yo'lida butun moli jonini baxshida etmoqqa tayyor turishi, piring do'stiga do'st, dushmaniga dushman bo'lib yashamog'ining shartligi⁵⁰.

Yassaviy el orasida katta obro' orttirib, avliyo deb ulug'langan. "Madinada-Muhammad, Turkistonda-Ahmad" degan ovozarlar tarqalgan. U Yassida vafot etgan. Mozori muqaddas qadamjoga aylangan. 1395-1397 yillarda Amir Temur Yassaviyning qabri uzra maxobatli maqbara qurdirgan.

Axmad Yassaviy islom ahkomlarini turkiy xalqlar orasida yoyilishiga katta xissa qo'shdi. U o'z hikmatlarida ishq, poklik, xalollik, yolg'ondan saqlanish, kishi moliga xiyonat qilmaslik, to'g'rilik kabi insoniy fazilatlar haqida kuylaydi. U turkiy tasavvuf adabiyotida o'ziga xos maktabga asos soldi. Turkiy dunyoda biror bir so'fiy shoir yo'qki, unga ergashmagan, undan o'rganmagan bo'lsin.

⁵⁰ Jo'rayev U, Sayidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. 148 bet.

Axmad Yassaviyning tasavvufiy qarashlari uning “Hikmatlar” she’riy to’plamida berilgan. Unda insoniy g’oyalar, axloqiy pand-nasixatlar, islom dini aqidalari va xadislarda ilgari surilgan ma’naviy-ma’rifiy fikrlar sodda uslub bilan, xalqona ravon tilda bayon qilingan.

Ahmad Yassaviy (1091-1167) o’z dunyoqarashini quyidagicha ifodaladi: “Haqiqatga shunday kishi erishadiki, u barcha dunyoviy narsalardan shariatni afzal ko’radi; o’zidan, o’z hayotidan kechib tariqat tomon boradi; ruhan va qalban ma’rifatga beriladi”. (Ahmad Yassaviy. “Hikmatlar”). Xudoga intiluvchilar orasida faqat shunday kishi uning joyini biladiki, u o’z piringing (ma’naviy ustoz) buyruqlariga boysunadi, sabru qanoat qiladi, ozi bilan kifoyalanadi, o’zini azoblarga, qiyinchiliklarga mahkum etadi, ovqatni kam iste’mol qiladi. Din va sufiylar aytgan ko’rsatmalarni bajarish, azob-uqubat, ochlik, sabru-qanoat, muayyan voqeiy ehtirolarga bo’lgan o’z istaklarini so’ndirish orqali inson “nafratli” dunyodan ozod bo’ladi va Xudoga singib ketadi.

Movaraunahr tasavvuf ta’limotida Najmidin Kubroning o’rni alohida. Najmiddin Kubro - tasavvufning mashxur shayxlaridan biri. Kubroviya silsilasining asoschisi. Uning laqablari: “Najmiddin”-“Dinning yulduzi”, “Kubro”-“Ulug’”, “Valiytarosh”-“Valiylarni tarbiyalovchi”.

Kubro 1145 yilda Xorazmda tavallud topgan. Yoshligidanoq xadis va kalomni o’rganadi. Ilm istab Misr, Shom, Bag’dod, Nishopur va Tus kabi shaharlarga boradi. O’sha davrning buyuk shayx va olimlari: Bobo Faraj, Ismoil Kasriy, Ammor Yosir, Ruzbehxon Misriy va boshqalardan zoxiriy va botiniy ilmlarni o’rgangan. O’z yurtiga qaytgach, xonakox ochib, valiylik-ustozlik qilgan.

Bosqinchi Chingizxon lashkarlari 1221 yilda Xorazmga yaqinlashib yurt og’ir ahvolda qolganida 76 yoshli Kubro ona yurtini ximoya qilishga otlanadi va mo’g’ullar qo’lida qaxramonlarcha shahid bo’ladi. Bu haqda Mirzo Ulug’bek “To’rt ulus tarixi” asarida shunday yozadi: “Murshidi a’zam Shayx Najmiddin Kubro xudo amri bilan Xorazm uchun boshini tikdi. Boshini topshirishda qotil

yaloviga yopishdi. Dini xaq iqlimining shohi. Ul pir sarpanjasidan u zabardast yigit yalovni chiqarib ola olmadilar. Sayidlar shayxi sarpanjasida kofir yalovini ko'rib xayratda qolgan oqillar bu xolni sharxladilar: Yalov uchun Shayx tutib, ta'rix aytdiki, vafotim sanasi "shohi shuhado" ("shaxidlar shoxi") dir. Biz shunday ulug'lardanmizki, gavhar tutamiz; oriqlik echki tutgan pastkash emasmiz. Imon qadaxidan bir qo'limiz bilan may ichsak, ikkinchi qo'limiz bilan kofir yalovidan tutamiz".⁵¹

Vatandoshimiz Najmiddin Kubroning bu jasorati avlodlar uchun, vatanparvarlikning yorqin timsolidir.

Najmiddin Kubro tariqatining o'ziga xos xususiyati uning dunyoqarashida ifodasini topgan. Xudo va borliq masalasini xal etishda islom ta'limotiga asoslanadi. Uning fikricha, xamma narsa va xodisalar, shu jumladan, odamzot xam uning shu'lasini, ko'rinishini, jilvalanishini deb hisoblaydi. Shayx Kubro odamzot umrining, dunyoning mohiyatini xam tasavvuf nuqtai nazaridan turib izohlaydi. Bu xaqda shunday degan: "Dunyo-oylash o'rni, ibrat manzili, ishrat saroyi, ko'prik binosidir. U mo'minlarning ekinzori, qidiruvchilarning bozori, intiluvchilarning savdo do'koni, izlanuvchilarning ulovi, suluk yo'liga kirganlarning ko'prigi, aldanganlarning ma'shuqasi, sodiqlarning o'tar joyi, oriflarning axlatxonasi va shaytonlarning o'lkasidir. Uning bilan savdo qilganlar aldanadi, unga ko'ngil bergan yo'ldan ozadi."⁵²

Najmiddin Kubro inson haqidagi qarashlarida, inson o'z mohiyati e'tibori bilan kichik olam- "olami sugaro" dir, ammo unda katta olam "olami-Kubro" xususiyatlari mujassamdir. Odamzot taraqqiy etib borsa, u Alloxning "Raxim" va "Raxmon" sifatlaridan boshqa barcha sifatlarini bilib oladi. Biroq bu yo'lda unga piri komil raxnamolik qilishi lozimligini ta'kidlaydi."⁵³

⁵¹ Murzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. Toshken. Cho'lpon. 1994. 165-166 betlar.

⁵² Mullaho'jaeva K. Ko'ngilga nazar. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi, 2001 yil, 23 noyabr.

⁵³ Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. Tavhid asrori. Toshkent. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1999, 174-bet.

Buyuk so'fiy o'zinig asarlarida kubroviya tariqati a'zolari-soliklar amal qilishi, kamolotga erishishi lozim bo'lgan o'nta axloq-odob qoidalarini ishlab chiqqan. Ular quyidagilardan iborat:

1. Tavba. Solik oldingi qilmishlariga tavba qilib, Xudoni bilishi, unga qaytishi, o'z ixtiyori bilan uni sevishi, zoxiran va botinan muttasil poklanib, takomillashib bormog'i lozim.
2. Zuxd fi-dunyo. Tariqat yo'lini tutgan kishi barcha dunyoviy boyliklardan, mol-mulk va noz-ne'matlardan voz kechishi, o'zini tiyishi darkor.
3. Tavakkul al-Alloh. Tariqat a'zosi Alloxga mutloqo ishonishi, unga sitqidildan e'tiqod qilishi, barcha ishlarni qilishda uning mehribonligi va qudratiga umid bog'lashi zarur.
4. Qanoat. Solik mol dunyoga, boylikka mukkasidan ketmasligi, unga xirs qoymasligi oz narsa bilan qanoatlanishi, sabr-toqatli va qanoatli bo'lishi shart.
5. Uzlat. Solik yolg'iz qolib, xaloyiqdan uzoqlashib, qalbini mustaxkamlab, xis-tuyg'ularini jilovlab, botinan o'zini chiniqtirib, poklanib bormog'i zarur.
6. Mulozamat az-zikr. (Uzluksiz zikr). Tariqat a'zosi doimo Allox nomini tilga olib, butun qalbini U bilan to'ldirib borishining shartligi. Shundagina pastkashlik, xasad, ochko'zlik, ikkiyuzlamachilik va boshqa salbiy illat va razilliklar kishi ko'ngliga yo'l topa olmaydi.
7. Tavajjuh. Solik butun qalbi, bor vujudi bilan Alloxga murojaat qilishi, Unga cheksiz muhabbat qoyishi, undan boshqa narsa borligini xis etmasligi lozim.
8. Sabr. Solik to'g'ri yo'ldan adashmasdan borishi uchun o'z mayllarini so'ndirishi, xayvoniy xususiyatlardan –shaxvoniy xirsu xavolardan qutilmog'i kerak.
9. Muroqaba. Tariqat a'zosi o'z qalbini xar qanday pastkashliklardan saqlamog'i, riyo va makru xiyla nayranglardan xalos bo'lmog'i shart. Shundagina dil yomon illatlardan poklanadi, rux nafs natijasida zanglab qolgan bo'lsa, jilo topadi.

10. Rizo. So'fiy endi Allox uni sevib qolganligini sezadi. Rizolik maqomi solikning Xaqqa yetishganligini bildiradi.⁵⁴

Yuqoridagi qonun qoidalarda tasavvufning xam nazariy, xam amaliy masalalari o'z aksini topgan.

Baxouddin Naqshband (1318-1389) –naqshbandiylik tariqatining buyuk namoyondasi. El orasida Xoja Bahouddin Balogardon, Xo'jai Buzruk, Shohi Naqshband nomlari bilan mashxur. Buxoroda Qasri Xinduvon qishlog'ida tug'ilgan. Baxouddun Naqshband Boboyi Samosiy, Amir Kulol, Mavlono Orif Xalil ota, Kusam Shayx kabi ustozlardan saboq olgan. U ikki marta xaj qilgan. G'aribona xayot kechirgan, faqat o'z mehnati orqali dehqonchilik va keyinroq mis va kimxobga naqsh solish bilan kun ko'rgan. O'z ta'limotini yaratishda Abduxoliq G'ijduvoni asos slogan "Xojagon" silsilasining sakkiz moddadan iborat qoidasiga o'zining uch qoidasi (talabi) ni qo'shib uni takomilga etkazdi. Shu tariqa tasavvuf naqshbandiya tariqatida yanada mukammallikka erishdi. Baxouddin taxallusi Naqshbandning dinni mustaxkamlash va taraqqiy ettirish uchun qilgan xizmatlari ulug' va beqiyos bo'lganligi uchun berilgan. Ma'nosi dinning faxri, bebaxosi demakdir. Naqshband taxallusiga kelsak, u ikki mazmunda talqin etiladi. Biri ul zot misga, matoga gul, naqsh soluvchi bo'lganligi uchun naqshband taxallusi berilgan deb e'tirof etiladi. Ikkinchi talqin esa Allohni qalbiga naqsh qilib olgan degan ma'noda ifodalanadi. Baxouddin Balogardon deyilishiga sabab ustoz Shayx Boboyi Samosiyning Naqshbandga qarata aytgan "Karomat qilibdurlarki, nozil bo'lgan balo sening barokatingdan daf' bo'lg'ay!" so'zlariga nisbat berilgandir.

Baxouddin Naqshband shonu shuhratning shox supasiga ko'tarilganlarida xam o'zlari uchun xizmatkorlar saqlamagan ekan. Aksincha shoxu gado barobarligi to'g'risidagi adolatli g'oyani ilgari surgan. "Xojalik bandalikka to'g'ri kelmas, Allox oldida barcha barobar" – deb aytgan.

⁵⁴Islom ensiklopedyasi. 138-139-betlar; Bo'ronov Q. Xalqimiz ma'naviyati va ma'rifatining teran ildizlari. 52-bet.

Naqshband o'zini doimo xukmdorlardan uzoqda tutgan. Odamlarga yahshilik qilish eng yuksak insoniy burch ekanligini ta'kidlab, sham kabi yong'il, elga oydinlik ulash, ammo o'zing xilvatda turgil deb aytgan. U xamma uchun, ayniqsa oddiy xalq, xunarmandlar uchun qo'l keladigan "Dil ba yoru dast ba kor" – "Dil yor (Allox) bilan, Qo'l ish bilan band bo'lsin" shiorini o'rtaga tashlagan. Bu shior naqshbandiylikning asosiy mohiyatini tashkil etadi. Aytish joizki mazkur xayotbaxsh shiorda tasavvufni nazariy va amaliy jixatlari tugal xolga kelganligi o'z ifodasini topgan. Chunonchi, tasavvuf yo'lga kirgan kishi Tavxid (Allox) moxiyatini o'zi uchun anglab yetdi, endi bundan keyin nima qilishi kerak? Bu savolga tasavvufning oxirgi tariqati Naqshbandiya javob beradi. Birinchi maqsadga erishildi – "dilda yor" xolati mavjud, endi ishga kirishmoq lozim – "dast ba kor" ga o'tishi kerak. "Dilda yor" xolati tasavvuf yo'lga kirgan kishining dilida, ya'niki qalbida g'araz, xudbinlik yo'qligini, uning pokligini bildiradi. "Dast ba kor" ishga qo'l ursa tasavvuf axlining o'z shaxsiy g'arazli maqsadlari uchun emas, xolis Allox uchun, xaqiqat va adolat tantanasi uchun amaliy xarakterga kirishilgan bo'ladi. Shu sababli xar nafas "dilda yor" bo'lishi, Allox ismi dilda zikr etilishi, ya'ni "Xush dar dam" qoidasiga amal qilishi taqozo qilinadi. Chunki Allox nomi bir nafas dilni tark etsa, darxol o'rnini g'araz xudbin bir niyat egallashi mumkin. "Nazar bar qadam" shu ma'noga yaqin turib, u bexuda biror qadam qoymaslik, xar bir amaliy harakatning Allox yo'lida qoyilayotganini xis etib, diqqat bilan kuzatib, nazardan qochirmay borish kerakligini bildiradi.⁵⁵

Naqshband ilgari surgan "Dil ba yoru dast ba kor" shiorini yanada soddaroq tarzda shunday izoxlash mumkin. Tasavvuf axlining maqsadi Allox vasliga erishish bo'lsa, buning uchun tarki dunyo qilish, zoxidlik yo'lga kirishi shart emas, balki Alloxni xar damda dilda zikr etib, qo'l esa mehnat bilan band bo'lgan xolda xam yetish mumkinligini anglatadi.

Baxouddin Naqshband Islomni xayot bilan, shaxs va oila bilan, jamiyat ravnaqi bilan bog'lab "Kam yegil, kam uxla va kam gapir" deb nasixat qilgan.

⁵⁵Imomnazarov M. Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. 176-bet.

Amir Temur bu shiorga amal qilib, arkonu davlatga, barcha mulozimlarga aytar so'zim shu bo'ldi: "Kam yenglar-ocharchilik ko'rmasdan boy-badavlat yashaysizlar, kam uxlanglar –mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar –dono bo'lasizlar"⁵⁶ – deb yozgan.

Naqshband doimo adolatni, mehnat asosida bunyod etilgan xalol luqmani ma'qullagan. Bu jihatdan uning "insondagi yahshi fe'llar, yahshi amallar xalol luqmadandir" so'zlari biz uchun ibratdir.

Naqshbandiya tariqati o'zining mazmun- moxiyati jixatidan yangi tarbiya usullari- suxbat ta'limi, yashirin, botiniy zikr, "anjuman ichra xilvat"ni olg'a surishi va targ'ib qilishi bilan ajralib turadi. Ya'ni Alloxga yaqinlashishning butunlay yangi bo'lgan, sifat jixatdan avvalgi tariqatlardan tubdan farq qiladigan o'n bitta qoida, talab va usullarini ishlab chiqqanligi bilan ajralib turadi.

Bu usul va qoidalar quyidagilardan iborat:

1. Hush dar dam. Tariqat a'zosi doimo Allox nomini zikr qilishi, zikrga g'arq holatda xushyor bo'lib yurmog'i lozim. Har bir nafas olganda va chiqarganda xushyorlik va ogohlikni yo'qotmaslik lozim, toki bunda g'aflat ruhingga xech yo'l topa olmasin.

2. Nazar bar qadam. Muridning nazari doim har bir bosgan qadamni nazarga saqlasin, uning nazari behuda narsalarga sochilmasin va keraksiz joyga tushmasin. Lozim bo'lmagan joyga bormasin.

3. Safar dar vatan. Tariqat a'zosi ruhi tanasida bo'lgan holda Alloh sari intilishda bo'lsin, ya'ni har bir inson vafot etgach, tanasi tuproqqa aylanib yerda qoladi, ruhi esa Allohga qaytadi. Ammo sufiy tirik paytida ham fikri-zikri Alloh bilan bo'lishi kerak.

4. Xilvat dar anjuman. Muridning doimo "Qalbing Alloxda, qo'ling esa mexnatda" shioriga amal qilib, zoxiran xalq bilan,botinan Xaq bilan bo'lishligini bildiradi.

⁵⁶ Amir Temur o'gitlari. Toshkent, Navro'z, 1992 y, 58-bet.

5. Yodkard. Tariqat a'zosi doimo Allox yodi bilan yashamog'i va zikr qilmog'i lozim.

6. Bozgasht, ya'ni Allohga qaytish. Tariqat a'zosi tili yoki dilida kalima keltirgandan so'ng uning orqasidan "Xudovando, mening maqsadim sensan" so'zini aytadi. Bu qoida odamdan yahshi yoki yomon fikrlarni xaydovchidir.

7. Nigaxdosht. Tariqat a'zosi o'zining har bir hatti-harakatini Alloh roziligi yo'lida bajarilayotganligini hushyorlik bilan nazorat qilib borishi.

8. Yoddosht. Sufiyning maqsadi doimo Allox rizoligi yo'lida harakat qilishi kerakligini yodida saqlashi lozimligi.

9. Vuqufi zamon. Tariqat a'zosining doimo o'z vaqtini xisob-kitob qilib yurishi, vaqtning qanchasi xayrli, qanchasi yomonlik uchun bo'lganligini oylab yurmoqligi odobini bildiradi.

10. Vuqufi adadiy. Tariqat a'zosi uchun xamisha Allohning yagonaligini, tanxoligini, voxidligini nazarda tutib yurish odobidir.

11. Vuqufi qalb. Tariqat a'zosining xamisha o'z dilida Alloxni saqlash bilan ko'ngli to'q xamda xotirjam bo'lib yashirin zikr xolatida bo'lish odobini bildiradi.⁵⁷

Yuqorida qayd etilgan tariqat a'zosi amal qilishi shart bo'lgan qoida, talab, odobning sakkiztasini Abduxoliq G'ijduvoniyy yaratgan. Ular Baxouddin Naqshband tomonidan yana uchta qoida bilan boyitilib takomilga etkazilgan.

Baxouddin Naqshband xaqida Alisher Navoiy "Nasoyim ul-muhabbat" asarida shunday deb yozgan: "Oliy sifatlar egasi va mo'tabar zot, Xaq ravshanligining shohi va to'g'ri yo'lning gul soluvchisi bo'lgan Xoja Baxouddin Naqshband bu iqlim uzra taxt qurgach, yo'qlik mulkida xam podshox bo'ldi"⁵⁸

Haqiqatdan xam, oltin silsila- "silsilot az-zaxab" deb atalgan va ko'ngillarda ishqu sadoqat urug'ini ko'kartirishga zamin yaratgan naqshbandiya tariqati musulmon olamida asrlar osha chuqur ildiz otdi. Hozirda Pokistonda

⁵⁷ Jo'raev U., Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. 154-155-betlar.

⁵⁸ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 17-tom, "Fan", Toshkent, 2001 y, 261-265-betlar.

Naqshbandiya tariqati Jaxon markazi faoliyat ko'rsatmoqda. XXI asrga kelib, nafaqat musulmon olamida, balki AQSH, Germaniya, Rossiya, Avstraliya, Litva kabi mamlakatlarda xam bu tariqatga ixlosmandlar ko'paydi.

“Naqshbandiylik tasavvufni xayotiyashtirgan ta'limotdir,-deydi Pokistondagi naqshbandiya tariqati jaxon markazi raisi Zulfiqor Axmad. –Ushbu tariqat daraxti xali butun olamni tutadi, chunki unda kishilik tafakkurining eng amaliy va oqilona xulosasi mujassam”⁵⁹

2. Tasavvuf pirlarining ma'naviy merosi va komil insonni shakllantirish muammolari

Tasavvuf tariqati namayondalaridan Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning ko'pgina safdoshlari va shogirdlari bugungi Navoiy viloyatining Karmana, Nurota, Qiziltepa, Xatirchi kabi mavzellarida yashab, komil insonni tarbiyalashga, ma'naviyatimizning rivojlanishiga muhim hissa qo'shganlar.

Mavlono Orif Deggaroniy tarixiy manbalarning guvohligiga qaraganda, taxminan 1313 yilda Hazora qishlog'i Deggaron dahasida (hozirgi Karmana tumanining Hazora jamoa xo'jaligi hududida) tug'ilgan. Asl kasbi do'kondor bo'lib, bo'z to'qish bilan shug'ullangan. Mavlono Orif Deggaroniy dahasida tug'ilganliklari bois Deggaroniy nomi qo'shib aytilgan.

Tarixiy manbalarda ta'kidlanishicha, Amir Kulolning 4 o'g'li va 4 xalifasi bo'lgan. To'rt o'g'illarini to'rt xalifalari tarbiyatiga bergan. Shu o'g'illaridan 3-o'g'illari Amir Hamzani Mavlono Orif Deggaroniyning ixtiyorlariga berganlar.

⁵⁹ “Xalq so'zi” gazetasi, 2003 y 28-noyabr.

Mavlono orif Deggaroniy tasavvuf ilmi sohiblari kabi eng avvalo ilmni ulug'lagan, ilmi toliblarni e'zozlagan. Jumladan, u kishi shunday deydi:

Qoriyi nodon kutah andesh ast, Yor girad kase ki dar pesh ast.

(Nodoning ishi kalta oylashdir, aqlli odam oqibatni oylaydi.)

Naqshbandiya tariqati pirlarining, ayniqsa Mavlono Orif Deggaroniy faoliyatida asosiy o'rinni egallagan. Komillik sifatlarining, sirlarining "xadiqai xirad", aql ko'z qorachig'iga tinimsiz fayz bag'ishlashini unutmaslik, komillik sifat-fazilatlarini egallashga da'vat etiladi. Mavlono Orif tasavvuf ilmi sohiblari kabi eng avvalo ilmni ulug'lagan, ilmi toliblarni e'zozlagan. U kishi qanoat tuyg'usini tengsiz ma'naviy xazina deb bilgan. Shogirdlar bilan bo'lgan uchrashuvlarda qanoatni topgan kishi hech kimga muhtojlik sezmasligini ta'kidlab turgan.

Mavlono Orif odamiylik qadriyatlarini har narsadan ustun qoygan. Baxt-saodatga erishish faqat mehnat tufayli amalga oshishini alohida uqtirgan. "Qo'ling mehnatda bo'lganda, dilda ne bo'lmoq kerak" degan savolga hamisha "Diling Ollohni zikrlashda bo'lsin" degan naqlni muntazam eslatib turgan. Nodonlikni qattiq qoralagan. Tarixiy manbalar mutolaasidan shu narsa aniqki, Mavlono Orif nodonlikni aql jallodi deb hisoblagan. Mavlono Orif Deggaroniy va Bahouddin Naqshbandiylar dunyoqarashi botinan (ichdan) xudo bilan, zoxiran (tashqaridan) odamlar bilan bo'lish keraqligiga asoslangan. Ularning aqidasi ko'ra, "Dil ba yoru dast ba kor (qalb Olloh bilan qo'l mehnatdan ajralmasligi kerak). Zotan, mehnat mashaqqatsiz istemol qilingan rizq va narsa haromdir". Ushbu naqlarni Mavlono Orif har bir mashvaratda, shogirdlar, muridlar davrasida takrorlab turgan.

Sayyid Muhammad Nosiriddin Al-Xanafiy Al-hasaniy Al-Buxoriyning 1907 yili Buxoroda fors-tojik tilida va 2003 yilda Toshkentda rus tilida chop etilgan "Tuhfat az-zoirin" ("Ziyoratchilarga sovg'a") asarida qayd etilishicha, Deggaron dahasida tug'ilib yashagan. Mavlono Orif mashhur Sayid Amir Kulolning eng

yaqin shogirdlaridan biri bo'lib, u valiy, yetuk pir va mashhur din peshvosi bo'lishidan tashqari, ruhiy mo'jizalar, karomatlar, bashoratlar ko'rsatish qobiliyatiga ega shaxs ham bo'lgan. Amir Kulol aytardilarki, Mavlono Orif va Bahouddin Naqshbandga teng keladigan pir yo'q. Ular Olloh rahmatiga yetgan kishilardir. Ularda valiylik sifatleri mujassam.

Mavlono XIV asrning buyuk piru avliyosi bo'lish bilan birga Hazora, Toshrobot, Armijon, Dul-dul, Arabsaroy qishloqlarining hakimi sifatida ham nom chiqargan, tabiblik qilib kasalmand kishilarni davolagan, beva-bechoralarga mehr-shafqat ko'rsatgan. Manbalarda keltirilishicha, Mavlono Orif Deggaroniydan Abul Hayr Xoja ismli yagona o'g'il farzand qolgan. Xuddi shu shajaraning so'nggi vakillaridan biri Tohir Xoja Karmanadagi Qosim Shayx Azizon qabristoniga dafn etilgan.

Qosim Shayx Azizon - Markaziy Osiyo tarixidan ma'lumki, har bir hukmdorning bir necha diniy ustozlari piri bo'lgan. Buxoro hukmdori Abdullaxonning mashhur Joybor xo'jalaridan bo'lgan bir necha pirlaridan biri Qosim Shayx Azizondir. Qosim Shayx Karmanada umrguzaronlik qilgan. Shayx XVI asr ma'naviy-siyosiy hayotida muhim o'rin egallab, shu davr mamlakat tasavvufining yirik namoyondalaridan biri bo'lib, u kishining ma'naviy silsilasi Xo'ja Ahmad Yassaviy (XII asr) ga borib taqaladi. Qosim Shayx xalq manfaatlarini butun umr himoya qilib keladi.

Shayxning anchagina muridlari ham bo'lgan. Masalan, Samarqand yaqinidagi As'hobod qishlog'ida yashab o'tgan Hazrat Shayx Olim Azizon va shu viloyatning Sayid Ohu qishlog'idan bo'lgan Hazrat Pirimlar u kishining mashhur muridlardan hisoblangan. Qosim Shayxning yozgan asarlari borligini olimlar tilga oladi. Afsuski, bu asarlar tarix qa'rida yo'qolgan. Qosim Shayx Azizon salkam 80 yoshni qarshilab, 1581 yilda vafot etadi. U kishi Karmanada dafn etilgan. 2003 yilda allomaning tug'ilganligiga roppa-rosa 500 yil to'ldi. Abdullaxon Qosim Shayxga atab qurdirgan maqbara toshlari ham chor mustamlakachilari tomonidan

tashib ketilgan. Qosim Shayx maqbarasi yonidagi ziyoratxona ichida, mehrob yonida katta ko'k tosh (oniks) bo'lib, odamlar uni tavof qilganlar. Bu tosh ham Sank-Peterburgga olib ketilgan.

Xoja Xusrav - Karmana zaminida tasavvuf ilmidan voqif bo'lgan allomalardan yana biri, Shayx Xoja Xusravdir. Xoja Xusrav Xoja Bahouddin Naqshband bilan bir davrda yashagan va unga murid bo'lgan. Shayx Xusrav muzofotdagi voqealardan Naqshbandni xabardor qilib turgan. Shayx Xusravning Naqshband bilan insoniylik, qalb go'zalligi, mehnatni ulug'lashga oid fikrlari hamisha uyg'un holda kechganligi haqida ko'pgina asarlarda keltiriladi. Shayx Xusrav kabi alloma, shayxlarning Karmana tuprog'ida yashab, tariqat ilmi bilan shug'ullanganliklari, ilmi toliblarni haqiqat yo'lidan boshlaganliklari xususida tarixiy manbalarda kam ma'lumotlar keltirilsa-da, xalq orasida rivoyat, naqlar ko'p uchraydi.

Sayid Xovand Buxoriy - Shayx Abu Sayid Buxoriy shayx Xoja Sulaymonning as'hoblaridan, tariqat sohibi, turli karomatlar egasi, Karmanada bir necha yillar istiqomat qilgan. Katta e'tiborga loyiq tariqat olimi.

Xoja Mavlono Isfahoniy - mashhur "Mehmonnomayi Buxoro" asarining muallifi. Bir qancha vaqt Karmanada Jonibek sulton saroyida xizmat qilgan.

Jaloliddin Poshshoxo'ja - (1480-1547), "Miftoh al-adl" va "Gulzor" asarlari bilan mashhur bo'lgan shoir. U Jonibek sulton, Ubaydullaxon va Kiston Qora sulton xizmatida bo'lgan.

Xoja Sulaymon Karminiy - tasavvuf ilmini tarqatishda jonbozlik ko'rsatgan. Xoja Abdulxoliq G'ijduvoniyning xalifalaridan biri bo'lib, u kishi bilan tez-tez muloqotda bo'lgan.

Valijon sulton Jaloiriy, Qulbobo Ko'kaldosh - mahalliy shoirlardan, ular Karmanada ijod qilganlar. Ko'plab qasidalar, she'rlar, g'azallar bitganlar. Shohlar uyushtirgan bazmlarda ishtirok etib o'zlarining mahoratlarini namoyish etganlar.

Muhammad Vafo Karminagiy - XVIII asrda xon saroyida muhim lavozimlardan birini egallagan. O'zining "Tuhfayi xoniy" asari bilan mashhur bo'lgan.

Abu Tohirxo'ja - tarixchi olim. 1844-1848 yillarda Samarqand tarixiga bag'ishlab mashhur "Samariya" asarini yozadi. Chor Rossiyasi qo'shinlari Samarqandni olgan kezlarida Karmanaga ko'chgan. Raislik lavozimida ishlagan. 1874 yilda vafot etgan va Qosim Shayx mozoriga dafn etilgan.

Komil inson tushunchasi ma'naviy barkamol inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ma'naviy barkamollikka erishmay komil inson darajasiga yetish mumkin emas. Demak, Ma'naviy barkamollikka intilish - bu komil inson darajasiga erishish uchun intilishdir. Komillikka inson butun umri davomida erishib boradi. Uchala tushuncha sog'lom avlod, ma'naviy barkamollik, komil inson - darajama-daraja chuqur ma'no kasb etadi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, komil inson bo'lishning aniq cheki va chegarasi yo'q. Bizning ko'hna tariximizda yuzaga kelgan, xalq, mamlakat tarixida katta ma'naviy-axloqiy tarbiya rolini oynagan tasavvuf komil inson nazariyasi haqidagi, uni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqidagi ta'limot va amaliyot sanaladi.

Komil inson biz uchun idealdir. u barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomati serob, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim to'la pokiza zot.

Komil inson odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarning ifodachisi. Komil insonlar jamiyatning tirik vijdonlaridir. Kishilar ularga qarab xushyor tortadilar, dunyo behudaligidan o'zlariga kelib, o'z qalblariga, o'z qilayotgan ishlariga razm soladilar, tavba-tazarru qiladilar.

Komil inson haqida tasavvuf adabiyotida ko'p asarlar bitilgan. Ana shunday kishilardan biri XIII asrda yashagan Aziziddin Nasafiy bulib, "Insoni komil" nomli risolasida komil insonga ta'rif berib shunday yozadi: "Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda yetuk bo'lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to'rt narsa kamolatga yetgan bo'lsin: yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi axloq va maorif". Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg'on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan yashab, ezgu ishlarga tayyor turadi.

Yaxshi sifatlarni egallab odam komil inson martabasiga ko'tarila oladi. Komil inson - insonlarning eng mukammali, eng oqili va donosi. Komil inson insonlar jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mu'tabar zotdir. Insonlar komillikka axloqiy-ma'naviy poklanish jarayonida erishadilar.

Komillikning belgisi Haq yo'lidan borib, xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o'z so'zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga foyda keltirsa, yomonlarni to'g'ri yo'lga solsa, haq yo'lida fido bo'lsa, u shuncha komil bo'ladi.

Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga etkazish haqida musulmon Sharqi axloqi tarixida inson hayoti uchun dasturulamal, qo'llanma vazifasini o'tagan ko'p pandnomalar, xalq kitoblari mavjud bo'lgan. Shulardan ba'zilarini sanab o'tamiz. Chunonchi, Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbul-qulub", Xusayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muhsiniy" va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Bu asarlarning ko'pchiligida odil shoh va adolat, halollik, soflik, poklik, to'g'rilik, rostgoylik, insonparvarlik, ma'rifatli bo'lish kabi insonning sharqona fazilatlari berilgan.

Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqona fazilatlari sanab o'tilgan. Bular qatoriga ulug' mutafakkir quyidagilarni kiritadi: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o'z kasbidan topib kun o'tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o'zini kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo'lish -

yaxshi, muloyim tilli bo'lish, rahmdil bo'lish, saxiy bo'lish, mard bo'lish, halimlik, xushxulq bo'lish, rizo-rozilik bilan kun o'tkazish, sabrli bo'lish, sadoqatli, vafoli bo'lish, riyozat chekishdan qo'rqmaslik va boshqalar.

Shu tariqa o'tmishda, komil insonning o'ziga xos axloq kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, bu sifatlarga ega bo'lish har odamning orzu-armoni deb qaralgan. Komil inson haqidagi g'oyalar katta ijtimoiy-axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan. U insonni sharafli, ezgulik va buyuk xayr ruhida tarbiyalash, mehru muhabbat, vafo va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qilib keldi. Har zamon, har lahzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yovuz, qabih ishlar, nojoya xatti-harakat va qiliqlardan saqlanishga ko'maklashdi, ularda iymon va vijdon binosining paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Komil inson iymon va e'tiqodlilik, halollik va poklikning ilmiy timsoli. Biz hammamiz shunga intilib yashamog'imiz lozim. Mustaqil O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tish sharoitida iymonli bo'lish, halollik va poklik, vijdonli va diyonatli bo'lish nechog'lik zarur ekanligi hammamizga ayon. Mana shuning uchun ham Prezidentimiz Ma'naviy barkamol inson tarbiyasida yoshlarimizni elini, vatanini sevuvchi komil inson qilib tarbiyalash ishiga alohida ahamiyat berib kelayotir.

Prezidentimizning quyidagi ta'rifida komil insonning asosiy xususiyatlari har taraflama chuqur va teranlik bilan bayon qilib berilganligi diqqatga sazovordir: "Komil inson deganda, - deb yozadi Islom Karimov, - biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz".

Uning shakllanganligi darajasini xarakterlovchi eng muhim fazilatlar esa quyidagilardir: aqliy zukkolik, huquqiy komillik, axloqiy yetuklik, siyosiy teranlik, mehnatga halol munosabat, yuksak madaniy, ma'naviy saviya, professional iftixor, milliy va umuminsoniy g'urur va boshqalar.

Yuqoridagilarni hozirgi mustaqil hayotimiz, turmush tarzimiz, kishilarning, ayniqsa, yoshlarning intilishlari bilan bog'lab komil inson chizgilariga quyidagi xislat va fazilatlar kirishini umumiy tarzda bayon etishimiz mumkin:

Komil insonning umumiy xislatlari: yoqimlilik, ko'rkamlik, jozibadorlik, salobatlilik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ulug` sifatlik, o'ziga xoslik, yetuklik, jiddiylik, madaniyatlilik, tarbiyalanganlik va boshqalar;

Komil insonning axloqiy fazilatlarini: insonparvarlik, do'stlik, g'amxo'rlik, jonkuyarlik, samimiylik, odamiylik, bolajonlik, iymonlilik, fidokorlik, xushmuomalalik, boadablik, iltifotlilik, kechirimlilik, mehmondo'stlik, xalollik, to'g`rilik, diyonatlilik, haromdan hazar etish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va hakozolar;

Ishbilarmonlik xislatlari: ishchanlik, tirishqoqlik, serharakatlilik, ma'suliyatlilik, insoflilik, halollik, malakalilik, epchilik, uddaburonlik, saranjom-sarishtalik, tadbirkorlik, aniqlik, tejamkorlik, barkamollik, ta`masizlik, tavakkalchilik va boshqalar;

Zukkolik, idroklilik fazilatlarini: zehnlilik, bama`nilik, xotirjamlik, sog`lom fikrlilik, donishmandlik, sezgirlik, zakovatlilik, topqirlik, notiqlik, tanqidiylik, dadillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik kabilar;

Sobitlik xislatlari: faollik, qat`iyatlilik, tezkorlik, jo'shqinlik, sabotlilik, bir so'zda turishlik, barqarorlik, botirlik, dovyuraklik, intizomlilik, jiddiylik, nafsni tiyishlik, o'zini yo'qotmaslik, sovuqqonlik, o'ziga talabchanlik, kamsuqumlik, o'zini o'zi idora eta bilish va boshqalar.

Ehtiroslilik xislatlari: ko'tarinkilik, tantanavorlik, kulib turuvchanlik, xazinlik, kelajakka ishonch, ezgulik, kek saqlamaslik, oliyjanoblik, otashinlik, nozik tabiatlilik, hayolilik, xijolatpazlik, iffatlilik va hakozolar.

Bizningcha, ayni shu xislat va fazilatlarini yoshlarimiz ongiga singdira borilishi ularni barkamol, sog`lom va komil inson ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik ruhida yangicha fikrlaydigan fozil, komil inson, eng avvalo, fuqarolik burchini a`lo darajada his etadigan shaxs bo'lishi darkor. Sodda qilib aytganda, har qaysi komil inson, har birimiz: "Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi" deb emas, balki: "Men o'zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim" deb oylashimiz va har dam shu aqida bilan yashashimiz kerak. (Islom Karimov).

Ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning pirovard maqsadi imon e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. Ya'ni, mustaqil dunyo qarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkuriga tayanib yashaydigan barkamol shaxs — komil insonni tarbiyalashdan iborat.

Dunyo xalqlari ming yillar mobaynida o'z an'ana va urf-odatlarini, marosim va bayramlariga sodiq qolish, uni har qanday ta'sir va tazyiqlardan himoyalash orqali turli davrlar, ajdodlar o'rtasidagi ma'naviy yakdillikni ta'minlaganlar hamda milliy o'zlikni, mentalitetni saqlab kelganlar. Bu munosabat vorisiylik tushunchasining millat taqdiridagi hal qiluvchi ahamiyati bilan uzviy bog'liq. Shu o'rinda mavzuga doir tahlillar va misollarga o'tishdan oldin ushbu tushunchani biroz izohlab o'tsak. Avvalo vorisiylik tushunchasi o'z tarkibiga muayyan millatlarga xos bo'lgan tarixiy shakllanish bosqichlari: til, madaniyat, san'at, urf-odatlar, buyuk shaxslar merosi, milliy mentalitet, temperament, shuningdek bir qator sohalardagi xamda turmush tarzidagi o'ziga xoslikni saqlash, o'zlashtirish, o'sib kelayotgan avlodga singdirish va targ'ib etish elementlarini qamrab olishini qayd etish joiz.

Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, vorisiylik ma'naviyatning o'q ildizi, asosiy tayanchi, ajdodlarimizning bebaho merosidir. Vorisiylik masalasiga, uning ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi eng ustuvor omil hamda komil inson ma'naviyatini belgilovchi bosh mezon sifatidagi o'rni va ahamiyatiga doim urg'u berilib, mazkur masalaga jamoatchilik e'tibori muntazam qaratilayotganligi bejiz emas, albatta.

Ikkinchi bob boyicha xulosalar

Bugungi kunda yoshlarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash, komil insonni tarbiyalashda, sog'lom ijtimoiy-ruhiy muhitning samaradorligini yanada oshirishda tasavvuf pirlarining ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish, tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

So'fiylik butun sharq ma'naviyati hayotida sog'lom ijtimoiy muhitda voyaga yetgan barkamol inson haqidagi g'oylarning shakllanishida muhim ro'l oynaydi. Garchi tasavvuf turli xil oqimlar, yo'nalishlar, suluklardan iborat bo'lsa ham, ularning markazida inson va uning ma'naviyati, ruhiyati, axloqiy pokligi, fazilatlari, bu dunyoda yashashdan maqsadi, barkamol inson qilib tarbiyalash masalalari turadi.

Tasavvuf insonni ruhan kamolatga yetkazishga qaratilgan. Uning aqidalariga ko'ra "komil inson odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislatlarni ifodachisi, u goyo Mutlaq iloh bilan insoniyat o'rtasida vosita bo'luvchi muqaddas xilqat. Bunday martabaga musharraf insonlarni valiulloh, qibla, qutb, g'avs, avtod, abdol deb ham ulug'laganlar. Mo'tabar kitoblarda naql qiladilarkim, Dunyo shunday zotlar tufayli barqaror va osoyishtadir"⁶⁰.

Tasavvufda komil inson masalasi uning bosh masalalaridan biri hisoblanadi. Komil inson –bu yahshi so'z, yahshi fe'l, yahshi ahloq va maorifga ega bo'lgan insondir. Tassavvuf pirlari insonni go'zal hulqli, halol va pok bo'lishga, so'zi bilan ishi, tili bilan dili bir bo'lishga, ilmli, madaniyatli, ma'naviyatli bo'lishga da'vat etadi.

⁶⁰ N.Komilov.Tasavvuf.1-kitob.T."Yozuvchi",1994.143-144 betlar

III BOB. TASAVVUF NAMOYONDALARINING MEROSLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

1. Informatsiyon hurujlar davrida ajdodlar ilmiy ma'naviy maroslaridan foydalanib yoshlar ongida g'oyaviy immunitetni shakllantirish.

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida amalga oshirilayotgan izchil islohatlar jarayonida Vatanimiz mustaqilligining ma'naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat tuyg'usini chuqur singdirish, ularni xalqimizning boy tarixi, ilmiy, madaniy va ma'naviy merosiga tayanib tarbiyalash ustuvor vazifalardan etib belgilangan.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi mumkin. Bunga dunyodagi qator davlatlar, jumladan, yon-atrofimizdagi mamlakatlarda sodir bo'lgan ayrim voqealar misolida ham guvoh bo'lib turibmiz. Inson qalbi va ongi uchun kurash, axborot xurujlari ushbu masalada bir zum ham xotirjamlikka berilish mumkin emasligini ko'rsatmoqda.

Ma'naviyatga qarshi qaratilgan tahdidlar o'z qiyofasini tez o'zgartirmoqda. Zamonaviy ilm-fan, yuksak texnologiyalar yutuqlaridan ustamonlik bilan foydalanmoqda. Shu sababli ular qanday niqobda, qaysi shaklda paydo bo'lmasin, bunday tajovuzlar mohiyatini murosasiz fosh etish, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ishlarni yanada kuchaytirish dolzarb vazifalarimizdandir. Yosh avlodga zamonaviy ta'lim berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongini turli mafkuraviy tahdid va axborot xurujlaridan ishonchli himoya qilish, ularda

gʻoyaviy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish masalalari tarbiyaviy jarayon mas'ullari zimmasiga katta vazifalar yuklamoqda.

Gʻoyaviy tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur oʻylangan, muntazam va uzluksiz olib boriladigan maʼnaviy tarbiya xalqimizni turli balo-qazolardan, mentalitetimizga yot illatlardan asrovchi bebaho vaksinadir. Shuning uchun Vatanimiz mustaqilligining maʼnaviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, anʼana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqloлга sadoqat tuygʻularini chuqur singdirish, gʻoyaviy va axborot hurujlari ortida turgan kuchlarning gʻarazli maqsadini fosh qilish, odamlarni hushyorlik va ogohlikka daʼvat etish oʻzini muqaddas Vatanimizning haqiqiy farzandi deb bilgan insonlarning tarix va kelajak oldidagi burchidir.

Prezidentimiz bu haqda shunday deydi:

“Biz mustaqillik yillarida azaliy qadriyatlarimiz, dinu diyonatimiz, milliy oʻzligimizni tiklash yoʻlida qanday katta ishlarni amalga oshirganimiz elu yurtimizga yaxshi maʼlum. Lekin bugungi shiddat bilan oʻzgarib borayotgan hayot va uning oʻtkir talablari maʼnaviyat sohasida yangi-yangi vazifalarni oldimizga qoʻymoqda. Butun dunyo miqyosida inson ongi va qalbini egallash uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi murakkab bir sharoitda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularni bizga yot va begona boʻlgan turli buzgʻunchi gʻoyalar taʼsiridan himoya qilish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etayapti.

Bu borada ona zaminimizdan yetishib chiqqan, dunyo ilm-fani va madaniyatiga unutilmas hissa qoʻshgan ulugʻ mutafakkirlarimiz, olimu allomalarimiz merosi, albatta, beqiyos ahamiyatga ega. Bu oʻrinda gap ana shu bebaho boylikdan oqilona foydalanish, uni farzandlarimiz, yosh avlodimizga haqqoniy va bezavol yetkazish haqida borayotganini, oʻylaymanki, hammamiz yaxshi tushunamiz. Yaʼni, boshqacha aytganda, bugun zamon talab qilayotgan

dunyoviy bilimlar bilan birga, inson hayotining ma'no va mazmunini anglatadigan, ezgulik, mehr-oqibat, bag'rikenglik kabi fazilatlardan saboq beradigan diniy bilimlarni ham puxta o'zlashtirgan odamgina davrimizning keskin va murakkab savollariga javob topa oladi.”

Hozirgi vaqtda dunyoning uzoq va yaqin hududlarida, Yaqin Sharq mintaqasida yuz berayotgan qarama-qarshilik va qonli to'qnashuvlar, nizo va ziddiyatlarning tub ildizi ham aynan mana shunday keng bilim va tushunchaga ega bo'lmaslik, jaholat botqog'iga botib qolish, aqidaparastlik va mahdudlik bilan bog'liq.

Bugun yurtimizda hukm surayotgan tinch va osoyishta hayotimizga tahdid solishi mumkin bo'lgan bunday xatarlarning salbiy ta'sirini, afsuski, bizning yaqin yon-atrofimizda sodir bo'layotgan turli voqea va hodisalar misolida ham ko'rish, sezish mumkin.

Bunday g'arazli kuchlarning asosiy niyati – hali hayotiy tajribasi, siyosiy-ijtimoiy saviyasi yetarli bo'lmagan, sodda va g'o'r yoshlarni yo'ldan urish, o'zining qabih niyatlari yo'lida foydalanish.

Faqatgina mustaqil fikrlaydigan, iymon-e'tiqodi mustahkam, otobobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan ezgu qadriyatlarga sadoqatli bo'lgan insongina bunday qutqularga uchmasligi, to'g'ri yo'ldan adashmasligi mumkin. Buning uchun, albatta, birinchi navbatda yoshlarni yuksak bilim va ma'naviy fazilatlar bilan qurollantirish, g'oyaviy immunitetni shakllantirish lozim. Ularga biz uchun muqaddas bo'lgan islom dinining chinakam insoniy mohiyatini, uning tinchlik, yaxshilik, mehr-shafqat, hamjihatlik dini ekanini to'g'ri tushuntirib berish kerak. Bizga yot va begona bo'lgan turli zararli oqimlardan himoyalaniish uchun g'oyaviy immuninetetni shakllantirish lozim.

Shu borada, butun islom olami yuksak hurmat va ehtirom bilan e'tirof etadigan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Rumi kabi buyuk

ulamolarimiz qoldirgan boy ma'naviy meros biz uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Bunday tabarruk asarlarning dolzarb ahamiyati shundaki, ular dunyoning ayrim hududlarida odob-axloq asoslariga bolta urilayotgan, "ommaviy madaniyat" ko'rinishlari tobora keng tarqalib borayotgan bir vaziyatda, bamisoli insoniyatning ko'zini ochib beradigan, uni ogoh etadigan bong kabi yangramoqda.

Islom madaniyati, islom falsafasining qadimiy markazlaridan biri bo'lgan bizning muqaddas zaminimizda kamol topgan ana shunday ulug' olimu ulamolar, aziz-avliyolarimizning o'lmas merosini, biz kimning, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanimizni jahon miqyosida keng targ'ib tashviq qilish lozim.

Shuni iftixor bilan qayd etishimiz lozimki, tasavvuf ta'limoti taraqqiyotida Turkiston farzandlarining xizmati beqiyos bo'lgan. Xoja hakim at-Termiziy, Shayx Abu Mansur al-Maturidiy as-Samarqandiy, Xoja Abduxoliq G'ijduvoni, Xoja Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Shayx Najmiddin Kubro, Xoja Ali Romitaniy, Abu Ali al-Farmadiy, Yusuf Hamadoni, Bahouddin Naqshband kabi siymolar ilohiy Ma'rifat yo'lining rahnamolari bo'ldilar. Ular yaratgan ta'limot va ilgari surgan ma'naviy-axloqiy g'oyalar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yuqotgan emas. Chunonchi, Ahmad Yassaviy hikmatlarida ilgari surilgan axloqiy pand-nasihatlardan molparastlikni fosh etish, kishilarni insofli, diyonatli, iymonli bulishga chaqirishda foydalanish o'rinli. Yassaviy inson hayotidagi katta kurash - nafsni taslim etishga xizmat qiladigan kurash deb hisoblagan. Nafsga mag'lub shoh - qul, nafsdan ustunlikka erishgan g'arib - shohdir, deb aytadi.

Nafs inson uchun katta yovdir. Shu yovning boshini yanchgan, uni yenggan, nafsga taslim bo'lmagan kishining g'ururi va insoniy qadr-qimmatini hech kim poymol qila olmaydi, deb bilgan. O'z hikmatlaridan birida shunday deydi:

Nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur,

Yuldan ozib, toyib, to'zib gumroh bo'lur.

Yotsa - tursa shayton bilan hamroh bo'lur....

u nafs bandalariga qarata "Nafsni tepgil, nafsni tepgil ey badkirdor" deb murojaat etadi, va

"Nafsim meni yo'ldan urib xor ayladi, Termultirib xaloyiqqa zor ayladi", - deb nafs bandalarini tanqid etadi. Nafs insondagi butunlikni, iymonni sindiradi, ma`naviy jihatdan jarlikka qulatadi. Shu bois "Nafsni tanib mehnat etsa rohat", - deb xitob qiladi. Bu g`oyalar bizning hozirgi kunimiz, tarbiyamiz uchun g`oyat muhim.

Movarounnahr tasavvuf ta`limotida Xoja Bahouddin Naqshbandning o`rni alohida ahamiyatga ega ekanligini ham qayd etishimiz lozim. Naqshbandiya ta`limoti hayratlanarli darajada ijtimoiy-iqtisodiy, ma`naviy-ma`rifiy ma`no va mohiyatga, hayotiy mazmunga ega.

Naqshbandiya ma`naviy-axloqiy ta`limotida hur fikrlikka keng o`rin berilgan. Bu sulukdagilar mehnat qilish, ilm olish, uz mehnati evaziga halol yashash, noz-ne`matlarni ko`pchilik bilan baham ko`rish, faqirona hayot kechirish, hammaga yaxshilikni ravo ko`rishni afzal bilganlar.

Bahouddin Naqshband - aybsiz odam yo`q, shuning uchun agar aybsiz do`st axtarsak do`stsiz qolamiz, - der ekanlar.

Odamlarga yaxshilik qilish eng yuksak insoniy burch ekanligini ta`kidlab, sham kabi bo`lgin va odamlarga yorug`lik ber, uzing esa qorong`uda bo`l, degan ekanlar.

Xoja Bahouddinning "Ko`ngil Oллоhda bo`lsinu, qo`ling esa ishda" hikmatlarining inson Ma`naviy dunyosi takomilidagi ahamiyati beqiyosdir.

Najmiddin Kubro asos solgan Kubroviya tariqatining qoidalari o`nta bo`lib, ularda bu tariqat yo`lini tutgan sufiyning ichki ma`naviy dunyosi qanday bo`lishi ko`rsatilgan. Insonning sabr toqatli bo`lishi, boylik va mol-mulkka mukkasidan

ketmaslik, har qanday pastkashlik, riyo, makr va hiyla-nayrangga bormaslik, hayvoniy xususiyat - shahvoniy hirslarga berilmaslik g`oyalari ilgari suriladi.

Xalqimiz endi - erkinligini qo`lga kiritgan, o`zligini anglab yetgan bir zamonda allaqanday kimsalarga ergashib yana jaholat va qullik tuzog`iga qaytadimi?

Albatta yo`q. Ammo hamma gap har qanday tahdid yoki tahlika oldida vahimaga tushmasdan, ana shu kurash va sinovlarga doimo tayyor turishda, ogoh va sergak bulishda. Ayniqsa yoshlarimizni ularning zararli ta`siridan asrab qolish hozirgi tarbiyaviy ishimizning asosiy yo`nalishi bo`lib qolishi lozim.

Yoshlarimiz doimo va har on ogoh va yana ogoh, sergak bo`lishlari zamon talabi. Bugungi yoshlarimiz ongiga mustaqillik g`oyasini chuqur singdirishimiz lozim. Toki ular milliy ildizlari baquvvat, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo`lib yetishsin. Ana shunda johil aqidaparastning “da`vati” ham, axloqni rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g`oyalar ham ularga o`z ta`sirini o`tkaza olmaydi. (Islom Karimov)

Muhtaram Prezidentimizning “Turkiston-press” axborot agentligi muxbirining savollariga javoblarida ta`kidlaganlaridek: “Biz o`z dinimiz va e`tiqodimizdan hech qachon voz kechmaymiz. Shu bilan birga muqaddas dinimiz sha`niga dog` tushirmoqchi bo`lgan kimsalar bilan hech qachon murosa qilolmaymiz. Men O`zbekiston rahbari sifatida qandaydir yovuz kuchlar islom dinimizni, ota-bobolarimiz e`tiqodini, musulmon fuqarolarimizni tahqirlashiga, jamiyatimizga xavf tug`dirishiga hech qachon yo`l qoymayman”⁶¹

Prezidentimiz aytganidek, har birimiz hamisha, har soniyada ogoh bo`lishimiz lozim.

“Bu mustaqil yurt har bir fuqarosining muqaddas burchi bo`lmog`i lozim. Muqaddas dinimiz sha`niga dog` tushirmoqchi bo`lgan, undan g`arazli siyosiy

⁶¹ Karimov.I.Olloh qalbimizda,yuragimizda.”Xalq so`zi” gazetasi,1999 yil 6 mart soni

maqsadlarda foydalanishni istaydigan kimsalar va kuchlar bilan hech qachon murosa qilolmaymiz⁶²

Har bir fuqaro shuni anglab yetishi kerakki, O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida o'ziga xos va mos yo'li bo'lgani kabi madaniy-ma'naviy rivojlanishida ham o'z yo'li bor. Bu o'ziga xoslikni dinga, diniy qadriyatlarga munosabatimizda, ulardan ma'naviy tarbiyada foydalanishimizda ham ko'rishimiz mumkin. Bu yo'l Prezidentimiz asarlarida bayon qilib berilgan. Uning mohiyati, mo'tadil dindorlik, islom ma'rifatini rivojlantirish, ichki-botiniy olamni poklab, Ollohni dilda saqlab, aqlu tafakkur, ilmu irfon bilan kamolot sari borish, o'z merosiy qadriyatlarimiz va dunyo ilmini egallab, zamon bilan qadamma-qadam olg'a borish.

Xulosa shuki, mustaqillik bergan hidoyat yo'lini turli unsurlardan asrash, ularga berilmaslik, milliy mustaqillik tufayli jahon ma'naviyati va ma'rifati sahnida o'z o'rinlariga ega bo'lgan piru-komil ajdodlarimizni va ular qoldirgan boy ma'naviy-ma'rifiy merosni teran anglash, o'rganish va ulug'lash imkoniyatidan foydalanish lozim.

2. Milliy g'oyaning tamoyillaridan biri bo'lgan millatlar aro totuvlikni shakllantirishda tasavvuf pirlari ijodiyotining o'rni

Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida xalq farovonligini oshirish, jamiyatimizda ijtimoiy barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta'minlash yo'lida amalga oshirilayotgan izchil ishlar o'zining yuksak samaralarini bermoqda.

Bunday barqarorlik muhitining qaror topishida yurtimizdagi barcha millat vakillarining bir oila farzandlaridek ahil-inoq yashayotgani, buning uchun

⁶² Karimov.I.Ozod va obod Vatan,erkin va farovon hayot-provard maqsadimiz.26 bet

mamlakatimizda barcha zarur shart-sharoit ta'minlangani ham muhim omil bo'layotir. Fuqarolar, ayniqsa, turli millatlar o'rtasida o'zaro mehr-oqibatni yanada mustahkamlashga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida ta'kidlanganidek, "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi".

Milliy istiqbolimiz ijtimoiy hayotimizning barcha yo'nalishlarida bo'lgani kabi milliy munosabatlar va dinlararo totuvlik masalalarida ham tub o'zgarishlar yasadi. Bu nafaqat respublikamiz xalqlari o'rtasidagi tinchlik, totuvlik, bag'rikenglik va hamjihatlikda, balki Konsitutsiyamizda belgilab berilgan tamoyillar asosida millati va dinidan qat'i nazar, har bir fuqaromiz hayotida o'z ifodasini topmoqda.

E'tiqod erkinligi va diniy bag'rikenglik O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Ana shu oqilona siyosat tufayli O'zbekistonda 18 diniy konfessiya, jumladan, islom, nasroniy, yahudo, katolik va boshqa dinlar vakillari ahil-inoq, tinch-totuv yashab, o'zining diniy e'tiqod amallarini emin-erkin ado etib kelayotir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda dinlararo, konfessiyalararo, konfessiyalar bilan davlat idoralari o'rtasida biron-bir qarama-qarshilik yoki ziddiyat yuzaga kelgan holat qayd etilmagan. Keyingi vaqtlarda BMT doirasida o'tkazilayotgan barcha yirik xalqaro konfessiya, seminar va uchrashuvlarda O'zbekistonning dinlararo hamjihatlik va o'zaro hurmatni qaror toptirish borasida erishgan yutuqlari har taraflama e'tirof etilmoqda va qo'llab-quvvatlanmoqda.

Millatlararo totuvlikni shakllantirishda ajdodlarimizning ilmiy ma'naviy merosi, tasavvuf pirlarining ijodiyoti alohida ahamiyatga ega. Tasavvuf pirlari "inson olam mehvari" degan g'oyani ilgari suradilar. Inson qaysi millat vakili, qaysi din vakili bo'lishidan qa'tiy nazar, ularda maqsad bir deb qarashadi.

Masalan: Jaloliddinn Rumi o'z asarlarida chiroyli rivoyatlar bilan buni tushuntirgan. Buyuk so'fiy shoir dinlar, mazhablarni bir birlaridan farqlanadigan, ammo bir manzilga olib boradigan yo'llar deb biladi: "Yo'llar xilma-xil bo'lsa ham, lekin maqsad birdir", -deb qayt etadi.

Odamlarning bir-birlarini tushunmasligi, birinchidan tashqi ko'rinishlarga qarab hukm qilishda, ikkinchidan, Xudoni sevish, unga imon keltirish o'rniga manfaat yuzasidan munosabatda bo'lish, aniqrog'i, Xudoni o'zining g'arazli niyatlarini amalga oshirish uchun ro'kach qilish, madadkor deb hisoblashlaridan kelib chiqadi. Rumi mohiyatni tushunmasdan so'zdagi farqqa qarab o'zaro ixtilof qilishni mana bu rivoyat bilan tushuntirgan: to'rt millatdan to'rt kishi-turk, fors, arab va yunonlik yo'lda birga ketayotganlarida ularga birov bir dirham pul beradi. To'rtovlon bir-birining tilini tushunmagani sababli pulga nima sotib olish kerakligi ustida janjallashib qoladilar: Fors "angur" olamiz desa, arab man angur yemayman, "inab" istayman deydi. Turk "uzum" olamiz deb tursa, yunonlik yo'q, "istofil" emoqchiman deb musht o'qталadi. Natijada ular bir-birini tushunmay, yoqalashib ketishadi. Shu payt "yuz tilni biladigan olim yo'liqib, ularning nizosiga quloq solib, pulni qo'llaridan olib, bozordan uzum sotib olib berganida, to'rttalasi ham bir narsani hohlaganliklarini ko'rib hayron qolishadi, istaklari amalga oshib, yarashib ketadilar. Rumi bu rivoyat orqali odam qanchalik nodon bo'lsa, u xurofotga, rasm - rusumga, aqidalarga shuncha beruluvchan bo'lishini va aksincha, odamning ma'rifati, bilimi oshgan sari u iloh ilmiga, g'aybga yaqinlashib boradi, mazhabparastlik, aqidaparastlikdan yuqori ko'tarilaveradi, Haq sari talpinaveradi. Millatparastlik, mazhabparastlik so'fiylarga hos emas. So'fiylar zohirni emas, botinni rostlash, qalbning, ruhning kamoloti uchun kurashadilar.

Rumiyni yana bir chiroyli rivoyati misol bo'ladi. "Masnaviyi ma'naviy"da keltiriladiki, Muso payg'ambar bir yaylovdan o'tayotganida bir cho'ponga duch keladi. Cho'pon Xudoga nola qilib der edi: Ey Xudojon, Sen qayerdasan, kel sochlaringni tarayin, naki o'z jonim, balki qoylarim, farzandlarim Senga fido

bo'lsin. Qayerdasan, borib dastyoring bo'lsam, sut-qaymog'im bilan qorningni toydirdsam, boshing og'risa boshingni silayin, oyoqlaring uqalayin.

Muso buni eshitib, Cho'ponni koyiydi: Ey ahmoq, kofir bo'lding, Xudo yemaydi, ichmaydi, Uni o'zingga o'hshatma. U goyo quyosh, sen bir chivin. Cho'pon Musoning bu gapidan qattiq xafa bo'ladi va jimib qoladi.

Shunda Parvardigori olamdan Musoga vahiy keladi: Ey Muso, nima qilib qoyding bandamizni bizdan ayirding, Qoy, aytsin, sen bandalarning dilini Parvardigorga ulash uchun yuborilgansan, ajratish uchun emas. Biz har odamga, har bir elga o'z darajasida, o'z tilida muhabbat izhor etishga imkon berdik. Hindlarga hind tilida, sindlarga sind tilida so'zlatdik. To'g'ri Cho'ponning so'zlari juda to'pori, sodda, lekin muhabbati, qalbi toza.

Inson qalbi Allohning uyi, bu uy qancha toza bo'lsa, Alloh nuri shuncha aks etadi. Tasavvuf namayondalari odamlarning ko'zga ko'ringan tashqi belgilariga qarab hukm chiqarishni qoralaydilar. Odatlar, marosimlar, aqidalarga yopishib tarafkashlik bilan shug'ullanganlarni qoralab, mohiyatni idrok etish, tavhid sirini, imon nurini egallash, ilm-ma'rifatli bo'lishni targ'ib qiladilar.

Dunyoga emas, balki Allohga bog'lanish, Haqqa yetishish uchun riyozatlarni rohat deb, ulug' muhabbat bilan intilish faqat tasavvuf ta'limotiga xos. Ana shu jihatdan Tasavvuf ahli, ayniqsa, Rumi, Ibn al-Arabi, Jomiy, Mashrab kabi ulug' oriflar barcha dinlar va mazhablardan yuqori turganlar, mazhablararo tortishuvlarni ma'nisiz, behuda narsa deb qarab, odamlarni buni anglashga va birlashishga chaqirganlar. Tasavvuf gumanizmining umumjahoniyligi va o'lmasligi ham shundadir.

3. Tajriba-sinov ishlari natijalarining statistik tahlili va xulosalar

Pedagogik texnologiyalardan foydalanish jarayonida tajriba-sinov ishlarining tizimini tashkil qilish va uning haqqoniyligini ta'minlash maqsadida olingan natijalarning amaliy ahamiyatini tasdiqlovchi va bir-birini to'ldiruvchi metodlar majmuasini qo'lladik. Tajriba-sinov eksprementi 2 marotaba o'tkazildi. Birinchi tajriba-sinov eksperimentini Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 78 son umumta'lim maktabining 9 - "B" va 9 – "V" sinflarida o'tkazildi.

Tajriba-sinov eksprementini amalga oshirish uchun 2012 yil noyabr va dekabr oylari mobaynida Toshkent shahar Uchtepa tumanidagi 78 son umumta'lim maktabining 9 – "B" va "V" sinf o'quvchilari bilan alohida ish olib borildi. Tadqiqot ishini olib borishda mazkur tanlangan ikkita sinfnig o'quvchilari bir-biriga mos ravishda tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba sinov fani sifatida magistratura mutaxassisligidan kelib chiqqan xolda "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" fani tanlab olindi.

Xususan, 9- "V" sinf o'quvchilari nazorat guruhiga, 9- "B" sinf o'quvchilari tajriba guruhiga ajratildi. Shundan kelib chiqqan xolda nazorat guruhlariga 28 ta o'quvchi, tajriba guruhlariga 28 ta o'quvchi jalb qilindi. Tajriba sinov ishlarida jami 56 ta o'quvchi ishtirok etdi. Tajriba sinov darslari maboynida tajriba guruhiga avval markaziy osiyoda yashab o'tgan tasavvuf allamalari – Axmad Yassaviy, Slaymoy Baqirg'oniy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G'ijdivoniy, Baxouddin Naqshbandiy xayot yo'li va manaviy meroslari haqida ma'lumotlar berildi. Mustaqqillik davrida chop etilgan ularning asarlari va ular xaqidagi asarlar bilan tanishish tavsiya etildi. Muayyan davr o'tgach, ularga tasavvuf xaqida, ajdodlarimiz tasavvufiy merosi va ularda olg'a surilgan g'oyalarning bugungi kundagi ahamiyati xaqida savollar berildi.

Savollardan namunalar

1. Axmad Yassaviy kim bo‘lgan va qachon yashagan?
2. Baxouddin Naqshbandning “dil ba yoru dast ba kor” xikmatining mazmuni nima?
3. Najmiddin Kubroning vatanparvarligi uning qanday xatti xarakatida namayon bo‘lgan?
4. Sulaymon Baqirg‘oniyning qanday asarlarini bilasiz?
5. Alisher Navoiyning sufiy shayxlar xaqidagi yirik asarining nomi nima?
6. “Devoni hikmat” kimning asari?
7. Diniy va milliy bag‘rikinglik g‘oyasini Jalaliddin Rumiylar qanday qilib sodda usulda bayon etgan?

1. Tajriba-sinov va nazorat maydonlari tarkibi

№	Maktab	Tajriba guruhi	O‘quvchilar soni	Nazorat guruhi	O‘quvchilar soni	O‘quvchilar ning umumiy soni
1	Toshkent shahar uchtepa numani 78-sonli maktab	9B	28	9B	28	56

Mazkur tajriba sinov darsining natijalari quyidagicha bo‘ldi. Quyidagi jadvalda tajriba-sinov natijalari ko‘rsatilgan.



Эксперимент гуруҳларида жавоб натижалари экспериментдан oldin 30 %, экспериментдан keyin esa 70% bo'ldi. Назорат гуруҳининг жавоблари asosan o'zgarmadi, kamroq o'zgardi: 30 % dan 40 % ga o'zgardi.

Uchunchi bob boyicha xulosalar

Tajriba sinov ishlari tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi: Tasavvuf ta'limotini o'rganishda ma'naviy barkamol shaxsni shakllantirishning quyidagi mezonlari ishlab chiqildi:

Baynalmilallik tuyg'usiga ega bo'lish, o'zga millatlarning haq-huquqlarini, erkinliklarini, tilini, madaniyatini, urf-odatlarini hurmat qilish.

Insoniy fazilatlar (shirinso'zlik, ustozu-shogirdlik, poklik, mehnatsevarlik, kamtarlik, kamsuqimlik) ni namoyon qilish.

Yurt tinchligi, Vatan ozodligi, xalq farovonligi, mustaqilligi yo'lida faoliyat ko'rsatish.

Tasavvuf ta'limoti bo'yicha muayyan fikrga ega bo'lish.

Mazkur g'oyalar barkamol shaxsni shakllantiruvchi manbalar: fan, din, ma'rifat, umuminsoniy qadriyat-tasavvufning tarkibiy qismi sanalgan bilimlarni egallash, tasavvuf ta'limotining mazmunini singdirish asosida tizimli shakllantirildi.

Ta'lim-tarbiyani tasavvuf ta'limoti g'oyalari va demokratik tamoyillar asosida qurish komil inson shaxsini shakllantirish samaradorligini oshiradi, tezlashtiradi.

Talaba-yoshlar tasavvuf ta'limotini o'rganish jarayonida ular bilan o'zaro teng huquqlilik, kamtarlik, halollik tamoyillari asosida ish yuritish, muloqotda bo'lish ularning o'ziga bo'lgan ishonchini orttiradi, ustoz-shogirdlik fazilatlarini takomillashtiradi.

Tasavvuf ta'limotini o'rganish jarayonida Vatanga muhabbat, mardlik, jasurlik, milliy g'urur, yurt tinchligi, millatlararo totuvlik, umuminsoniy fazilatlar muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni va Kadrlar tayyorlashda tasavvuf ta'limoti g'oyalari asosida barkamol shaxsni shakllantirishning maqbul tizimini ishlab chiqish va xayotga tatbiq etish;

Faqir, pok, kamtarin, o‘z Vatanini sevadigan, bag‘ri keng, o‘z imkoniyatlarini yurt tinchligi, vatan ravnaqi, xalq farovonligi yo‘lida xizmat qilishdan ayamaydigan shaxsni shakllantirishga doir metodik majmualar yaratish;

Oliy o‘quv yurtlari, kollejlarda, maktablarda uchun darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda ularning mazmuniga tasavvuf ta‘limoti g‘oyalari singdirish;

Tasavvuf ilmiga doir falsafiy, ma‘naviy-ruhiy, tarixiy, insonshunoslik mavzusidagi ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, tahlil qilish, ulug‘ allomalar, aziz avliyolarning tasavvuf bo‘yicha risolalarini o‘rganib, tahlil etish va ulardan tarbiya jarayonida foydalanish, yoshlarga o‘qish jarayonida tasavvuf ilmi haqida alohida tushunchalar berish, yoshlarni tasavvuf ilmi bo‘yicha ma‘ruza bilan chiqishlarini tashkil qilish;

Tasavvuf ilmi bo‘yicha yoshlar o‘rtasida ma‘ruza-suhbatlar o‘tkazish;

Yevropa, Amerika olimlarining tasavvufga oid bo‘lgan asarlarini o‘rganish, ularni musulmon mamlakatlaridagi qadim va bugungi kunda yaratilgan asarlar bilan qiyosiy taxlil qilish.

XULOSA

Dinning yuksak rolini e'tirof etish bilan birga, diniy dunyoqarash tafakkurining: insonning o'zini o'rab olgan dunyoga, o'zi kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo'lmaganligini ta'kidlash bilan birga o'zimizning diniy – falsafiy merosimiz bo'lgan inson o'zligini anglashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan so'fiylikdan ham axloq-odob, tabiat va jamiyatga munosabatni, insonni qadrlashni, qisqasi ma'naviy poklanishni o'rganishimiz lozim.

Haqiqatan ham prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganlaridek, “xar bir inson va jamiyat inson va tabiatning uyg'un munosabatlari to'g'risidagi g'oyalar rivojiga Movarounnahr ya'ni Markaziy Osiyodagi so'fiylik ta'limotlari juda katta xissa qo'shganliklari sir emas” .

O'tmish davri mutafakkirlari, buyuk mutasavvuf olimu shoirlarni ilmiy va amaliy faoliyati, temuriylar davri adabiyot va ilm-fanning taraqqiyotida so'fiylik ijobiy rol o'ynab, keng tan olindi. “So'fizm, jumladan naqshbandiylik Temur va temuriylar davrida madaniyatning yuksalishi uchun g'oyaviy omil bo'lgan. Ko'zga ko'ringan so'fiylar – Charxiy, Porso, Xo'ja Ahror, Maxdumi A'zam va boshqalar mamlakatning ma'naviy xayotidagina emas, balki madaniyat ahllari manfaatlari hamda ma'naviyat taraqqiyotining tez-tez yoqlab chiqish bilan davlatning ichki siyosiy hayotida ham muhim rol o'ynaganlar” . So'fiylikni ma'naviy, diniy tafakkurning rivojlanishidagi ahamiyati Elyor Karimov tomonidan quyidagicha ta'kidlanadi: birinchidan – ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat mustahkamlandi hamda ular faoliyati jamiyat xayotining yuqori sohasiga ko'chdi; ikkinchidan – so'fiylik ajoyib uyg'onish darakchisi sifatida namoyon bo'lib, Markaziy Osiyo so'fiyligi Temuriylar sulolasi davrida, XIV - XV asrda ravnaq topdi . Bu ta'limon to XX asrgacha o'lkamizda o'z ahamiyatini saqlab halq ichida keng urf bo'lib keldi. Faqat yurtimiz chor Rossiyasi mustamlakasiga aylangach, ayniqsa 70 yillik kommunistik iste'dod davrida barcha milliy qadryatlarimiz toptalgani singari

tasavvuf namoyandalari ham chetga surildi, bu ta'limotni ilmiy jixatdan o'rganish qatag'on qilindi. Natijada keng halq ommasi ushbu ta'limotning ijobiy tasiridan bebaxra qoldi.

Bugungi kunda tasavvuf tariqatlarini amalga joriy qilishga urinishlar unchalik samarali natija berayotgani yo'q.

Bizning nazarimizda bu yo'l bugungi kun talablariga javob bermaydi. Buning o'rniga o'tmish tasavvuf pirlarining ma'naviy merosini jiddiy o'rganish asosida ularda olg'a surilgan ilg'or g'oyalarni yoshlar ongiga singdirish, tasavvuf ta'limoti va suluklari ishlab chiqqan ma'naviy tarbiya yo'llari va ussullarini ilmiy taxlil asosida pedagogika amaliyotiga bugangi kun talablariga muofiq ravishda joriy qilish yaxshi natija berishi mumkin.

Shundagina biz yosh avlodning barkamol inson bo'lib yetishuvida samarali natijalarni qo'lga kiritishimiz mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR ROYHATI

I. PREZIDENT ASARLARI

1. Karimov. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.«O'zbekiston», 1996 y.
2. I.Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T. «O'zbekiston», 1996 y.
3. I.Karimov. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. T. «O'zbekiston», 1996 y.
4. I.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. T. «O'zbekiston», 1994 y.
5. I.Karimov. Xalollik va fidoiyluk-faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin.T.«O'zbekiston», 1994 y.
6. I.Karimov. Yuksak malakali mutaxassislar - taraqqiyot omili. T. «O'zbekiston», 1995 y.
7. I.Karimov. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., «O'zbekiston», 1995 y.
8. I.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston», 1998 y.
9. I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T., «O'zbekiston», 1999 y.
10. I.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1999 y.
11. I.Karimov. Xushyorlikka da'vat. T., «O'zbekiston», 1999 y.
12. I.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot-pirovard maqsadimiz. T., «O'zbekiston», 2000 y
13. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. - T.: "Ma'naviyat", 2008 yil.
14. I. Karimov I.Biz kelajakimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.7-tom.T:O'zbekiston, 1999 yil.
15. I.Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - Toshkent: «O'zbekiston», 1997.
16. O'zbekiston Respublikasining qonuni. Ta'lim to'g'risida: 1997 yil 29 avgust Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1997.

17. O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash Milliy dasturi: 1997 yil 29 avgust Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1997.
18. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi ta'hriri): O'zbekiston Respublikasining qonuni, 1998 yil 1 may G`G` Xalq so'zi. - 1998. -15 may.
19. Xoja Ahror Valiy tavalludining 600 yilligini nishonlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2004 yil 25 mart Xalq so'zi. - 2004. 25 mart.

II. ASOSIY ADABIYOTLAR

1. M.Boltayev.Dunyoni anglagan ko'ngil.saodat.1993-8 son;
2. M. Boltayev. Xo'ja Abdulxoliq G'ijduvoniy-inson, do'st, hakim, rif'at shayx. Buxoro.1994 y.
3. Tasavvuf ta'limoti, uning mohiyati va ahamiyati. (o'quv qo'llanma). 1996 y.
4. Turkistonda o'rta asr arab musulmon madaniyati. O'zbekiston. 1993 y
5. Xayrullayev M. O'rta Osiyoda IX-XII asrlarda madaniy taraqqiyot. Fan.1994
6. I. Haqqul. Ahmad Yassaviy. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.2007 yil
7. Sultonmurod Olim. Ishq, oshiq, ma'shuq. Fan.1992.
8. Sultonmurod Olim. Buyuk NaqshbandiY. Kecha, bugun, ertaga. Fan va turmush.1993 yil. 5-6 sonlar.
8. Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy. O'qituvchi. 1996 yil
9. Yurgan Paul. XV asrda O'rta Osiyoda naqshbandiylik va uning siyosiy va ijtimoiy ahamiyati.
10. Mahmud A'sad Jo'shon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. Cho'lpon. 1998 yil.
11. Mahmud A'sad Jo'shon. Islom, tasavvuf va ahloq. Istiqlol. 2000 yil.
12. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. Istiqlol. 1999 yil.

13. Xusayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniyyoxud javonmardlik tariqati. Fors - tojik tilidan N.Komilov tarjimasini. – Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
14. N.Komilov. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. Birinchi kitob. – Toshkent:, «Yozuvchi», 1996.
15. N.Komilov. Tasavvuf. – G‘oyiblar xaylidan yongan chiroqlar /to‘plam/. – Toshkent:, «O‘zbekiston», 1994.
16. Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent. Sharq. 2004.
17. M.Imomnazarov, M.Eshmuhammedova “Milliy ma’naviyatimiz asoslari”. “Toshkent islom universiteti” nashriyoti. Toshkent-2001
18. Jo‘rayev U. Sayidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi.
19. Murzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. Toshkent. Cho‘lpon. 1994.
20. Mullaxo‘jayeva K. Ko‘ngilga nazar. “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi. 2001 yil, 23 noyabr.
- 21 Bo‘ronov Q. Xalqimiz ma’naviyati va ma’rifatining teran ildizlari.
22. Amir Temur o‘g‘itlari. Toshkent. Navro‘z. 1992 y.
23. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 17-tom. “Fan”, Toshkent. 2001 y.
24. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2003 y 28-noyabr.
25. Abdumalik Orif. Navoiy sufiymi yoki mutasavvufmi? – G‘oyiblar xaylidan yongan chiroqlar/to‘plam/. – Toshkent:, «O‘zbekiston», 1994.
26. M.M.Xayrullayev. Temur va temuriylar davrida madaniyat gullab-ashnashning asosiy omillari. – «Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni» mavzusidagi xalqaro konferensiya tezislari. – Toshkent: «O‘zbekiston», 1996.
27. E.Karimov. Temur va temuriylar davrida ma'naviy, diniy tafakkurning rivojlanishi. – «Amir Temur va uning jahon tarixidagi o‘rni» mavzusidagi xalqaro konferensiya tezislari. – Toshkent: «O‘zbekiston», 1996. – 76 b.
28. Abdulhakim Shar'iy Jo‘zjoniy. Tasavvuf va inson. -T.: Adolat. 2001.-191 b.
- Babajanov B. Islom, tasavvuf va hukmdorlarga nasihat masalasi G`G` Islom, tarix va ma'naviyat. - T., 2000. - 53 b.

29. Alouddin Mansur. Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima. -T: Cho'lpon, 1992.
30. Boboxonov Sh, Mansurov A. Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar fihristi. -T.: Movaronnahr, 1993.
31. Valixo'jaev B. Orifiy ilm sohibi. Zarafshon, 1995 yil 3 iyun.
32. Valix'jaev B. Hazrati Bahouddin va Navoiy. G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. -T, 1994.
33. Jahon mulkining nigohboni (Hazrat bahouddin Naqshband hayot yo'li, tariqatiga oid tezis va maqolalar).- Buxoro, 1993.
34. Jo'shon M.A. Islom, tasavvuf va axloq. -T: Istiqlol.
35. Ibrohim Haqqul. Irfon va idrok. -T.: Ma'naviyat, 1998.
36. Idris shoh. Naqshbandiya tariqati.-T.: O'zbekiston, 1993.
37. Islom ensiklopediyasi. -T, 2004.
38. Iskandarov B. O'rta Osiyoda falsafiy va ijtimoiy - siyosiy fikrning shakllanishi va rivojlanishi tarixidan lavhalar. -T., 1993
39. Yo'ldoshev N. Bahouddin Naqshband. - Buxoro, 1993.
40. Karomatov X.S. O'rta Osiyo va Xurosonda so'fizm ta'limotida hurfikrlilik. O'rta Osiyo xalqlari hurfikrligi tarixidan. -T.: Fan, 1990.
41. Mengliev B. Tasavvuf va bilish. Fan va turmush. 2001. 5-6sonlar
42. Mirzo Kenjabek. Murshidi komil hikmatlari. -T.: Yangi asr avlodi, 2004.
43. Mustaqillik izohli ilmiy-ommabop lug'at. A.Jalolov va K.Xonazarov taxriri ostida. Toshkent: «Sharq», 1998 y

III. INTERNET SAYTLARI

1. <http://www.edu.uz> - O'zbekiston respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
2. <http://ziyonet.uz>
3. www.press-service.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati.
4. www.gov.uz – Ўзбекистон Республикасининг ҳукумат портали.
5. www.pv.uz - Социально-экономическая и общественно - политическая газета Республики Узбекистан “Правда Востока”.
6. www.uza.uz – Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги.
7. <http://www.google.co.uz> - google дан излаш
8. <http://www.lex.uz> - Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси
9. <http://www.Arxiv.uz>- O'zbekcha ensiklopediya

Tayanch so'zlar lug'ati

Tahlil	Анализ	Analysis
Tasavvuf	Суфизм	Tasawwuf
Ta'limot	Учение	Teaching
Ma'naviyat	Духовность	Spirituality
Barkamol	Гармоничный	Harmonious
Baynalmilal	Интернациональный	International
Madaniyat	Культура	Culture
G'oya	Идея	Ideals
Fazilat	Достоинство	Dignity
Metod	Metod	Metod
Din	Религия	Religion
Tarbiya	Воспитание	Education
Imon	Вера	Faith
Tajriba	Эксперимент;	Experiment
Komil	Совершенный	Perfect
Ajdod	Предки	Ancestry
Milliy	Национальный	National
Millatlararo	Межнациональный	Interethnic
Faraz	Гипотеза	The hypothesis
Totuvlik	Согласие	Consent
Meros	Наследие	Heritage
Tariqat	Пут духовного совершенствования	Path of spiritual development

Qalb	Душа	Soul
Ruhiy	Духовный	Spiritual
Bosqich	Ступень	Stage
Sulukat	Образ действия	Course of action
Shariat	Шариат	Sharia
Haqiqat	Правда	True
Zohidlik	Подвижничество	Asceticism
Oshiqlik	Влюблённость	Love
Orif	Образованный	Educated
Ma'rifat	Просвещение	Education
Pir	Духовный наставник	Guru
Ma'naviy meros	Духовный наследие	Spiritual heritage
Tafakkur	Мышление	Thinking
Ma'lumot	Образование	Education
Bilim	Знание	Knowledge
Malaka	Квалификасия	Qualification
Konsepsiya	Концепсия	The concept
Induidallik	Индивидуальность	Identity
Innovasion texnologiyalar	Инновационные технологии	Innovative technologies
Mezon	Критерий	Criterion
Madaniyat	Культура	Culture
Metod	Метод	Method
Model'	Модель	Model

Pedagogik texnologiya	Педагогическая технология	Educational Technology
Muammo	Проблема	The problem
Mutaxassislik	Специальность	Specialty
Qobilyat	Способности	Abilities
Kasb	Профессия	Job title
Jarayon	Процесс	The process
Tizim	Система	System
Ijob	Творчество	Creativity
Eksperiment	Эксперимент	The experiment
Estetika	Эстетика	An esthetics
Texnologiya	Технология	The technology
O'qituvchi	Учитель	Teacher
Tavsifnoma	Характеристика	Characteristics
Maqsad	Сель	Purpose